ISSN 218-8088

XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI

"XALQ TA'LIMI AXBOROTNOMASI" JURNALI

Muassis:
"Xalq ta'limi" jurnali tahririyati DUK

PUBLIC EDUCATION BULLETIN

"PUBLIC EDUCATION BULLETIN" JOURNAL

2025

3-son
(May-Iyun)

Jurnal 2015-yildan chiqa boshlagan

(O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2014-yil 17-maydagi
137-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan)

TOSHKENT

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Uzoq va chekka hududlarda joy-lashgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xiz-matlarini joriy etish to‘g‘risida”gi 2**025-yil 19-fevral, 59-son buyrug‘i..... 4**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashini tuzish to‘g‘risida”gi **2025-yil 12-fevral, 47-son buyrug‘i 37**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug‘ullanadigan kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkilotlari reyestrini tasdiqlash bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi komissiya tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi **2025-yil 12-fevral, 50-son buyrug‘i 42**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2025-2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish bo‘yicha qo‘shinicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 12-fevraldagi 83-son qarori ijrosi haqida”gi **2025-yil 14-fevral, 52-son buyrug‘i** 47

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitishda tadbirkorlik subyektlarini jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 11-fevraldagi 78-son qarori ijrosi haqida”gi **2025-yil 19-fevral, 58-son buyrug‘i** .....

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Uzoq va chekka hududlarda joylashgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlarini joriy etish to‘g‘risida”gi 2**025-yil 19-fevral, 59-son buyrug‘i..... 52**

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi **2025-yil 19-fevral, 60-son buyrug‘i..... 55**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Uzoq va chekka hududlarda joylashgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlarini joriy etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmoni ijrosini ta’minlash hamda respublikaning olis va chekka hududlarda joylashgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlarini yo‘lga qo‘yish maqsadida **buyuraman:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152- son Farmonida:

2025-yil 1-martdan boshlab tajriba-sinov tariqasida respublikaning uzoq va chekka hududlarida joylashgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlarini joriy etilishi;

“Bolalarning erta yoshdan rivojlanishiga ko‘maklashish” loyihasi doirasida Jahon banki tomonidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan 4 dona auditoriya ko‘rinishida avtobuslarni jihozlash amalga oshirilishi;

avtobuslar haydovchilarining ish haqi, yoqilg‘i-moylash materiallari uchun va boshqa xarajatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi pedagogik mahorat markazlarining pullik xizmatlaridan tushgan mablag‘lar hisobidan qoplanishi belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida tajriba-sinov tariqasida mobil malaka oshirish xizmatlarini yo‘lga qo‘yish uchun 4 dona auditoriya ko‘rinishida jihozlangan avtobuslar tegishli hududiy pedagogik mahorat markazlari balansiga berilishi belgilansin.

3. Strategik rivojlantirish, xalqaro reytinglar va Jahon savdo tashkiloti masalalari bilan ishlash boshqarmasi (O.Raxmatillayev) 2025-yil 1-martga qadar avtobuslarning Qoraqalpog’iston

Respublikasi, Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari pedagogik mahorat markazlariga yetkazib berilishini ta'minlasin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari pedagogik mahorat markazlari direktorlari 2025-yil 1-martdan boshlab:

jihozlangan avtobuslarni belgilangan tartibda pedagogik mahorat markazi balansiga qabul qilsin;

tajribali avtobus haydovchilarini ishga olsin;

tajriba-sinov tariqasida olis va chekka hududlarda joylashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun auditoriya ko'rimshidagi avtobuslar negizida mobil malaka oshirish xizmatlarini yo'lga qo'yish choralarini ko'rsin.

5. Mobil malaka oshirish xizmatlari uchun ajratilgan auditoriya ko'rinishidagi avtobuslardan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (N.Abdunazarova) mobil malaka oshirish kursining o'quv materiallarini (mashg'ulot ishlanmalari, taqdimot, tarqatma materiallar, nazorat va baholash materiallari) ishlab chiqsin hamda tegishli hududiy pedagogik mahorat markazlariga metodik yordam ko'rsatsin.

7. Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari tegishli pedagogik mahorat markazi bilan hamkorlikda:

besh kun muddatda mobil malaka oshirish shaklida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida har oyda kamida bir marta o'quv seminarlarini tashkil etish bo'yicha tuman (shahar)lar kesimida

reja-jadvalni tasdiqlasin;

reja-jadvalga asosan o'quv seminarlarini sifatli tashkil etish va natijadorligini ta'minlash choralarini ko'rsin.

8. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev) maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlarining tashkil etilishini doimiy nazorat qilib borsin.

9. Axborot xizmati (D.Sobirova) olis va chekka hududlarda joylashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlari

uchun mobil malaka oshirish kurslarini tashkil etish jarayonlarini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritib borilishini ta’minlasin.

10. Devonxona (H.Raximbayeva) bir kun muddatda ushbu buyruqni vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘limlariga, tegishli tizim tashkilotlariga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazsin.

11. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklansin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 19-fevral,
59-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 10-fevraldagi 44-son buyrug‘iga
1-ilova

“O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga yuklatilgan topshiriqlar bo‘yicha

CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul vazirlik va idoralar	Ijrochilar
HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQARISH UCHUN MUNOSIB SHAROITLAR YARATISH						
1-maqsad: Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash						
1.	**1-ilova 1-band.** Maktabgacha ta’lim Tashkilotlari mavjud bo‘lmagan olis va chekka hududlarda maktabgacha ta’limning muqobil shakllarini tashkil etish.	**1.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlari mavjud bo‘lmagan olis va chekka hududlardagi mahallalar ro‘yxatini shakllantirish. **2.** Shakllantirilgan ro‘yxatdagi mahallalarda maktabgacha ta’limning muqobil shakli bo‘lgan mobil guruhlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish. Bunda, mobil guruhlari uchun maxsus jihozlangan avtobuslar hamda joylarda o‘yin maydonchalarini tashkil etish.	2025-yil aprel 2025-yil may	Xalqaro moliya institutlari, xorijiy va donor tashkilotlarning grantlari va mablag‘lari	**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari	**Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti** *(Sh.Muxamedov),* **Strategik rivojlantirish, xalqaro reytinglar va jahon savdo tashkiloti masalalari bilan ishlash boshqarmasi** *(O.Rahmatillayev)*

2-maqsad: Umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish						
2.	**1-ilova 2-band.** Uyda ta’lim olayotgan o‘quvchilar uchun qulayliklar yaratish.	Uyda ta’lim olayotgan o‘quvchilar uchun ta’limning mazkur yo‘nalishi bo‘yicha elektron va video darsliklar yaratish hamda ularga mustaqil shug‘ullanishlari uchun qulay muhit va sharoitlar yaratish. Jumladan:	2025-yil davomida	Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida	**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi,	**Inkluyuziv ta’lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo‘limi** *(R.(o‘rayev),*
		o‘quvchilarga mobil qurilmalar orqali foydalanish uchun maxsus moslashtirilgan platformani yaratish; elektron va video darsliklarni turli yoshdagi o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtirish; o‘quvchilarga pedagogik yordami mavjud bo‘lgan **“onlayn mentorlik”** tizimini joriy etish.			viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi	**O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi** *(D.Norboyeva),* **AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi** *(RMusurmonov)*

3.	**1-ilova 3-band. "Raqamli kutubxona"** tizimining samaradorligini oshirish.	**"Raqamli kutubxona"** tizimining kitoblarga buyurtma berish modulini joriy etish.	2025-yil iyul	Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida	**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,** Raqamli texnologiyalar vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari	**AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi** *(RMusurmonov),* **O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi** *(D.Norboyeva)*
4.	**1-ilova 4-band.** Umumta'lim maktablarini **birlamchi sport jihozlari** va **milliy musiqa cholg'u asboblari** bilan ta'minlash.	**1.** Umumta'lim maktablarini **birlamchi sport jihozlari** va **milliy musiqa cholg'u asboblari** bilan ta'minlash bo'yicha manzilli dasturni tasdiqlash. **2.** Tasdiqlangan dasturga asosan **birlamchi sport jihozlari** va **milliy musiqa cholg'u asboblari**ni belgilangan tartibda xarid qilish.	2025-yil aprel 2025-yil noyabr	Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida	**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari	**Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti** *(FKushnazarov)*

5.	**1-ilova 5-band.** Ta'lim jarayoni ishtirokchilarini **psixologik qo'llab-quvvatlash** tizimini takomillashtirish.	**1.** Ta'lim oluvchilarga nisbatan zo'ravonlikka moyilligi mavjud pedagog kadrlarni aniqlash va ularga psixologik yordam berish mexanizmlarini joriy etish.	2025-yil sentabr		Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy- metodik markazi,	**Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang'ich**
		2. Bulling, suitsid, voyaga yetmaganlar jinoyatini oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha pedagog kadrlar uchun interaktiv usullarni o'zida mujassam etuvchi maxsus kurs va dasturlar ishlab chiqish. **3.** O'qituvchilarning kasbiy so'nishining oldini olish, stresslarga bardoshlilik darajasini oshiruvchi simulyator va keyslar yaratish.	2025-yil oktabr doimiy		**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi**	**tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi** *(AKamalov)*
	3-maqsad: Umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish					

6.	**1-ilova 6-band.** Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida bilimni baholashning yangi tartibi joriy etilgan maktablar sonini oshirish.	**1.** 2024/2025-o‘quv yili yakunida **1 500 ta** umumta’lim maktablarida joriy etilgan bilimni baholashning yangi tartibi samaradorligini tahlil qilish. **2.** Tahlillar natijasida mazkur tartibni yanada takomillashtirish hamda 2025/2026-o‘quv yilidan boshlab yangi baholash tizimi joriy etiladigan maktablar sonini **3 000 taga** yetkazish.	2025-yil iyun 2025-yil sentabr	Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida	**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari	**O‘quvchilar bilimini baholash, tahlil qilish va apostil xizmatini ko‘rsatish boshqarmasi** *(O.Zokirov)*
7.	**1-ilova 7-band.** Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarda kommunikativ ko‘nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, hamkorlikda ishlash, tadqiqotchilik kabi ko‘nikmalarni shakllantirish.	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun **65 nomdagi** yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblarini yaratish va amaliyotga joriy etish.	2025-yil avgust	Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida	**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,** Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi	**O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi** *(D.Norboyeva)*

8.	**1-ilova 8-band.** Umumiy o'rta ta'lim muassasalariga **500 nafar** xorijiy mutaxassislarni jalb etish.	**1.** Rekruting tashkilotlari hamda vazirlikning rasmiy ijtimoiy sahifalari orqali xorijiy mutaxassislar uchun e'lonlar berish. **2.** Kelib tushgan murojaatlarni o'rganib chiqish, saralash va suhbatlar tashkil etish.	2025-yil avgust	Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida	**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,** Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat va Toshkent shahar hokimliklari	**Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi** *(Sh.(emirova)*
4-maqsad: Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish						
9.	**1-ilova 9-band.** Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari o'qituvchi -trenerlarini rivojlangan **xorijiy mamlakatlarga davlat granti asosida malaka oshirish** va stajirovkaga yuborish.	1. Maktabdan tashqari ta'lim yo'nalishida katta tajribaga ega davlatlarning tajribasini o'rganish. 2. Eng yaxshi maktabdan tashqari ta'lim yo'nalishi tizimiga ega davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish. 3. "El-yurt umidi" jamg'armasi ko'magida har yili **20 nafar** maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari o'qituvchi- trenerlarini xorijiy davlatlarga malaka oshirish uchun yuborish.	2025-yil may 2025-yil sentabr 2025-yil noyabr	Hisob-kitoblarga asosan homiylik xayriyalari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy- metodik markazi, **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,** "El-yurt umidi" jamg'armasi, manfaatdor vazirlik va idoralar	**Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish boshqarmasi** *(I.Xoldarova)*

10.	**1-ilova 10-band.** O'zbek tili o'qituvchilariga qo'shimcha ustama olish imkoniyatini yaratish.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'zbek tili (davlat tili) fani bo'yicha Bilim va malakalarni baholash agentligining milliy baholash tizimida olingan tegishli darajadagi o'zbek tili va adabiyoti sertifikatiga ega bo'lgan va ushbu fanlardan dars beruvchi pedagog kadrlarga ularning tarif stavkasiga nisbatan **50 foiz** miqdorida har oylik qo'shimcha ustama to'lash.	2025-yil 15-fevral	Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida	**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,** Iqtisodiyot va moliya vazirligi	**Pedagog kadrlarga malaka toifalarini berish jarayonini tashkil etish va kasbiy sertifikatlash boshqarmasi** *(S.Raximboyev),* **Moliya-iqtisod departamenti** *(I.Siradjev)*
5-maqsad: Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish						
11.	**1-ilova 11-band.** Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari qamrovini kengaytirish.	Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari sonini **700 ta**ga yetkazish choralarini ko'rish.	2025-yil sentabr	Tadbirkorlik sub'yektlari mablag'lari	**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,** Savdo-sanoat palatasi	**Ta'lim tashkilotlari litsenzi-yalash bo'limi** *(S.Maxsudov)*
23-maqsad: Nogironligi bo'lgan shaxslarni qoilab-quvvatlash bo'yicha yangi tizimni yaratish hamda ular uchun qulay va maqbul muhitni yaratish						

12.	**1-ilova 38-band.** Nogironligi boigan bolalarning ta'lim sifatini oshirish.	1. Toshkent shahrida tajriba-sinov tariqasida ko'p funksional korreksion maktab tashkil etish. 2. Nogironligi bo'lgan o'quvchilar o'quv rejalarini takomillashtirish va individual yondashuvni kengaytirish maqsadida o'quv-rejalarni tasdiqlab, o'quvchilarni ixtisoslashtirish (fan, kasb-hunar, Ay- Ti, san'at yoki sportga yo'naltirish). 3. "Biznes - maxsus maktab" hamkorlik modelini yo'lga qo'yish orqali nogironligi bo'lgan bolalarni mehnat bozoriga maqsadli tayyorlashni yo'lga qo'yish.	2025/2026-o'quv yilidan boshlab	Ijrochilarga ajratilgan budjet va nobudjet mablag'lari doirasida	Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Toshkent shahar hokimligi, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi**	**Inkluyuziv ta'lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi** *(R.To'rayev),* **Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish boshqarmasi** *(I.Xoldarova),* **O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'limi** *(AMamadaliyev),* **O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi** *(D.Norboyeva)*
	24-maqsad: Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillash tirish					

13.	**1-ilova 39-band.** Bolalarga korreksion-pedagogika va ko'p tarmoqli reabilitatsiya xizmatlarini ko'rsatuvchi ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim	**1.** Andijon viloyatida: nogironligi bo'lgan bolalar uchun davlat muassasasi shaklida reabilitatsiya markaziga ega "Imkon" ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotini zarur	2025-yil mart	Ijtimoiy himoya davlat at jamg' armasi hamda ijrochilar mablag'lari	Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Andijon viloyati hokimligi, Samarqand viloyati hokimligi, Qurilish va uy-joy kommunal vazirligi,	**Inkluyuziv ta'lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi** *(R.To'rayev)*,
	tashkilotlari qamrovini kengaytirish.	moddiy-texnik jihozlash ishlarini amalga oshirish; 2. Reabilitatsiya markaziga ega "Imkon" ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotini foydalanishga topshirish. 3. Samarqand viloyatida: nogironligi bo'lgan bolalar uchun reabilitatsiya markaziga ega "Imkon" ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotining bino-inshootlarini barpo etish loyiha hujjatlarini ishlab chiqish; 4. Qurilish-montaj ishlarini amalga oshirishni boshlash; 5. Zarur moddiy-texnik jihozlash ishlarini amalga oshirish; 6. Bino-inshootlarni foydalanishga topshirish.	2025-yil may 2025-yil fevral 2025-yil aprel 2025-yil aprel 2025-yil iyun		**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,** Sog'liqni saqlash vazirligi	**Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti** *(Sh.Muxamedov)*

25-maqsad: Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minlash						
14.	**1-ilova 42-band. Yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi** va **erta nikohlarning** oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.	1. Amalga oshiriladigan chora- tadbirlarning namunaviy tartibini ishlab chiqish. 2. Yaqin qarindoshlar va erta nikohlarning oldini olish mavzulariga qaratilgan targ‘ibot materiallarini tayyorlash va ularni ommaviy axborot vositalarida keng tarqatish. 3. O‘tkaziladigan tadbirlarga jalb etiladiganlarning tarkibini *(o‘smir yoshidagi qizlari bor, yaqin qarindoshlarga va qizlarni erta*	2025-yil mart 2025-yil aprel - dekabr	Ijrochilar mablag‘lari	Oila va xotin qizlar qo‘mitasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, **Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,** Din ishlari bo‘yicha qo‘mita	**Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi** *(AKamalov)*
		turmushga berishga moyilligi bor fuqarolar) belgilash. **4.** Aniqlangan tarkibdagi oilalar bilan manzilli targ‘ibot-tushuntirish ishlarini tashkil etish.				

15.	**1-ilova 44-band.** Xotin-qizlar tomonidan yaratilgan ixtiro va innovatsion mahsulotlarni xalqaro darajalarga olib chiqish, ayollar tadbirkorligini va elektron tijoratni rivojlantirish, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida **"Innawomenweek-2025"** ixtirochi va tadbirkor xotin-qizlarning innovatsion haftaligini o'tkazish.	1. Haftalik o'tkazish bo'yicha mas'ul tashkilotlar vakillaridan iborat tashkiliy qo'mita tarkibini shakllantirish. 2. Haftalik doirasida o'tkaziladigan "XXI asr ilm-fani va biznesda ayollar: yutuqlar va muammolar" mavzusidagi xalqaro forum, "Ixtirochi ayollar- 2025" ko'rgazmasi, o'quv seminar va tadbirlarda ishtirok etadigan chet ellik va milliy olima, ixtirochi, doktorant, tadqiqotchi va tadbirkor xotin-qizlarning ro'yxatini shakllantirish. 3. Haftalik doirasida xotin-qizlarini ixtirochilik va tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, intellektual mulk obyektlarini huquqiy muhofaza qilishlariga ko'maklashish, tadbirkorlik faoliyatiga innovatsion yondashuvni joriy qilishga yo'naltirilgan seminar va tadbirlarni tashkil qilish uchun dastur va ssenariylarini ishlab chiqish. 4. "INNAWOMENWEEK-2025" - haftaligini hamkor tashkilotlar bilan birgalikda yuqori saviyada tashkil qilish va o'tkazish.	2025-yil avgust 2025-yil sentabr 2025-yil sentabr 2025-yil oktabr reja asosida	Oila va xotin-qizlar qo'mitasi ijrochilar mablag'lari	Oila va xotin qizlar qo'mitasi, Innovatsion rivojlanish agentligi, Savdo-sanoat palatasi, Fanlar akademiyasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi, **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,** Tashqi ishlar vazirligi	**Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi** *(AKamalov)*

16.	**1-ilova 47-band.** Xorijiy mamlakatlarda o'zbekistonlik xotin-qizlarga har tomonlama ko'maklashish bo'yicha xorijiy sayyor qabullarni tashkil etish.	**1.** Sayyor qabullar o'tkazish grafigini ishlab chiqish. **2.** Mas'ul idora va tashkilotlar bilan birga xorijiy davlatlarda sayyor qabullar tashkil etish.	2025-yil aprel 2025-yil davomida	Ijrochilarning mablag'lari	Oila va xotin qizlar qo'mitasi, Migratsiya agentligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, MTRK, **Maktabgacha va maktab-ta'limi vazirligi,** Ichki ishlar vazirligi, "Vatandoshlar" jamoat fondi	**Murojaatlar boshqarmasi** *(/.Musurmonov),* **Xalqaro aloqalar boshqarmasi** *(A.Abdulxayev)*
	30-maqsad: Yoshlarni zamonaviy kasb		**ar va chet ti**	**lariga o'qitish tizimini yaratish**		
17.	**1-ilova 56-band.** Yoshlarni chet tillariga o'qitish tizimini takomillashtirish.	1. Chet tillarini ommalashtirishga ko'maklashuvchi "Ibrat farzandlari" loyihasini rivojlantirish va uning doirasida "Ibrat academy" mobil ilovasini takomillashtirish, "Ibrat - tillar oromgohi", "Xorijiy tillar marafoni"ini o'tkazish. 2. Chet tillarini o'qitishga ixtisoslashgan nodavlat ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish. 3. Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) to'plagan 7 ming nafar yoshlarga imtihon topshirish xarajatlarini to'liq qoplab berish.	2025-yil fevraldan boshlab yil davomida	Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Yoshlar ishlari agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,** "Ibrat farzandlari" NNT *(kelishuv asosida)*	**Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi** *(Sh.Temirova)*

18.	**1-ilova 57-band.** Yoshlar, ayniqsa kam ta'minlangan oilalar farzandlarini zamonaviy kasblarga o'qitishni rivojlantirish.	**1.** Yoshlarni kasb-hunarga o'qitish, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo'yicha **8 ming nafargacha** yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish. **2.** Kasbiy ko'nikma va malakalarini	2025-yil fevraldan boshlab yil davomida	Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Yoshlar ishlari agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, **Maktabgacha va**	**O'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'limi** *(A .Mamadahyev)*
		rivojlantirish orqali ularning bandligini ta'minlash, yuqori daromad topish imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashish.			**maktab ta'limi vazirligi,** O'zbekiston yoshlar tadbirkorligini qo'llab- quvvatlash markazi NNT	
31-maqsad: Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyat tini rag'batlantirish						
19.	**1-ilova 58-band.** Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish.	"Zakovat", "Munozara" kabi intellektual o'yinlarga yoshlarni ko'proq jalb etish, xalqaro va respublika fan olimpiadalari (tanlovlar, turnirlar, boshqalar) da yoshlarning ishtirok etishiga ko'maklashish.	2025-yil fevraldan boshlab yil davomida	Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	Yoshlar ishlari agentligi, "Zakovat" NNT, **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi**	**Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi** *(AKamalov)*

20.	**1-ilova 59-band.** Ilmiy va innovatsion faoliyat, intellektual o'yinlar hamda chet tillarini o'rganishga jalb etish orqali	**1.** Intellektual o'yinlarni rivojlantirish maqsadida barcha ta'lim muassasalarida shaxmat to'garaklarini joriy etish.	2025-yil aprel	Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida	**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar	**Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish boshqarmasi** *(IXoldarova)*
	yoshlarning iqtidorini rivojlantirish.	**2.** Yoshlarni chet tillariga qiziqishlarini oshirish hamda o'rgatish maqsadida joylarda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan o'quv markazlarini ochish hamda malakali o'qituvchilar bilan ta'minlash choralarini ko'rish.	2025-yil fevraldan boshlab yil davomida		vazirligi, O'zbekiston shaxmat federatsiyasi, Yoshlar ishlari agentligi	**Ta'lim tashkilotlari litsenziyalash bo'limi** *(S.Maxsudov)*
33-maqsad: Yoshlar o'rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish						
21.	**1-ilova 62-band.** "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida yoshlarni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga	**1.** "Bir million dasturchi" loyihasining navbatdagi bosqichi doirasida xorijiy nufuzli ta'lim platformalarida onlayn o'quv kurslarda tahsil olish imkoniyatini yaratish;	2025-yil may	—	Raqamli texnologiyalar vazirligi, **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,**	**AKTni joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi** *(RMusurmonov)*

T/r	Vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul vazirlik va idoralar	Ijrochilar
	mos dasturlar asosida tayyorlash.	2. Platforma imkoniyatlari va undan samarali foydalanish bo'yicha hududlardagi ta'lim tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda keng targ'ibot ishlarini amalga oshirish; 3. Loyiha doirasida **15 ming nafar** yoshlarni onlayn o'quv kurslarda ta'lim olishlarini ta'minlash; 4. "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida eng yaxshi natija ko'rsatgan yoshlar va ishtirokchilarni munosib rag'batlantirib borish.	2025-yil dekabr		Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat va Toshkent shahar hokimliklari	
34-maqsad: Jismoniy tarbiya va sport bilan sliig'ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish						
22.	**1-ilova 63-band.** O'quvchilar o'rtasida gimnastika bo'yicha **"Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri kubogi"** sport musobaqasini o'tkazish.	1. Musobaqaning tuman (shahar) bosqichini o'tkazish. 2. Musobaqaning viloyat bosqichini o'tkazish. 3. Musobaqaning respublika (final) bosqichini o'tkazish va g'oliblarni rag'batlantirish.	2025-yil oktabr 2025-yil noyabr 2025-yil dekabr	Homiylik, xayriya va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbaalar hisobidan	**Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,** Sport vazirligi, O'zbekiston gimnastika federasiyasi	**Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish boshqarmasi** *(I.Xoldarova)*

23.	**1-ilova 64-band.** Sog'lom turmush tarzini rivojlantirish maqsadida ommaviy sport musobaqalarida aholi qamrovini kengaytirish.	**1.** Ommaviy sport musobaqalari qamrovini **12 million nafarga** yetkazish. Bunda: mahallalarda istiqomat qiluvchi aholi, xususan yoshlarga tarqatiladigan ommaviy sport-ni keng targ'ib qiluvchi buklet namunalarini ishlab chiqish va tarqatish; "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tegishli vazirlik va	2025-yil aprel-dekabr	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasida nazarda tutilgan mablag'lar hamda ijrochilar mablag'lari	Sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,** Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat va	**Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish boshqarmasi** *(I.Xoldarova)*

T/r	Vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas'ul vazirlik va idoralar	Ijrochilar
		idoralar bilan hamkorlikni rivojlantirish; ommaviy sport musobaqalarini mahalla yoshlari, maktab, kasbiy va oliy ta'lim o'quvchi-talabalari, davlat tashkilotlari xodimlari hamda 30 yoshdan katta aholi o'rtasida tashkil qilish. **2.** Aholining **11 ta** yosh toifalari bo'yicha barcha hududlarda har yili jismoniy tayyorgarlik sinovlarini o'tkazish.	2025-yil davomida		Toshkent shahri hokimliklari	

35-maqsad: Respublikada sport bilan professional va doimiy shug‘ullanuvchi yoshlar ulushini oshirish						
24.	**1-ilova 65-band.** Davlat sport-ta’lim muassasalarida muntazam shug‘ullanuvchi yoshlar sonini oshirish.	Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanuvchi yoshlar sonini **600 ming** nafarga yetkazish. Bunda: ommaviy sport musobaqalarida natija ko‘rsatgan iqtidorli yoshlarni sport maktablariga seleksiya qilish; sport turlari bo‘yicha seksiyalar sonini oshirish; sport-ta’lim muassasalarida shug‘ullanuvchilar qamrovini oshirish maqsadida joylardagi Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari bilan hamkorlikda seleksiya va targ‘ibot ishlarini amalga oshirish; sport-ta’lim muassasalarida sportchi -o‘quvchilarni mashg‘ulotlardagi davomatini “Face ID” tizimi orqali yuritilishini to‘liq yo‘lga qo‘yish.	2025-yil dekabr	—	Sport vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, **Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,** O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi	**Maktabdan tashqari ta’lim-ni tashkil etish boshqarmasi** *(I.Xoldarova)*

41-maqsad: O'zbek milliy san'atini targ'ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish.						
25.	**1-ilova 77-band.** Jamiyatda o'zaro hurmat muhitini shakllantirish, ayniqsa, yoshlarda odob- axloq me'yorlariga amal qilish, milliy qadriyatlarni e'zozlash, jamoat joylarida belgilangan tartibda qoidalarga rioya etish ko'nikmasim shakllantirish.	**1.** Mavzuga oid spektakllar, kino asarlari, targ'ibot roliklarini yaratish hamda ularni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ib etish. Bunda: yoshlarda jamiyatda o'zini tutish, muomala madaniyati, qadriyatlarga hurmat ruhini shakllantirish; "Mahallam tozaligi - yurtim obodligi" g'oyasi asosida tozalik madaniyati har bir insonning shaxsiy mas'uliyati ekanligini jamoatchilik ongiga singdirish; "Xonadonim, Vatanim obodligi, ekologiya va atrof-muhit musaffoligi - sog'lom kelajagimiz garovi" mavzusida spektakl, kino va targ'ibot roliklarini yaratishga alohida e'tibor qaratish.	2025-yil davomida	Ijrochilarga Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida	Madaniyat vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,** AOKA, MTRK, Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston mahallalar uyushmasi, Yoshlar ishlari agentligi, Savdo-sanoat palatasi	**Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi** *(AKamalov),* **Ekologik diplomatiya bo'limi** *(X.Axmedov)*

	2. Yaratilgan spektakl, kino va targ'ibot roliklarini ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, zamonaviy reklama moslamalari va jamoat transportlarida keng targ'ib qilish.					**Axborot xizmati** *(D.Sobirova)*
	3. Respublikadagi yirik korxona, tashkilot, zavod va fabrikalarda taniqli san'atkorlar ishtirokida "Mahallam tozaligi - yurtim obodligi" mavzusida madaniy tadbirlar uyushtirish.					**Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi** *(AKamalov)*
	4. Barcha bo'g'indagi ta'lim muassasalarida yoshlar o'rtasida tozalikka rioya qilish madaniyatini shakllantirish, ularning atrof-muhitga munosabatini yaxshilash va bu boradagi ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga bag'ishlangan tarbiyaviy- ma'rifiy tadbirlar, seminar va ko'rik- tanlovlar o'tkazish.					**Ekologik diplomatiya bo'limi** *(X.Axmedov)*

43-maqsad: Madaniyat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ularning tasviriy va amaliy san'at			**moddiy-texnika bazasini yaxshilash va soha xodimlarini qoilab-quvvatlash, yo'nalishlarini rivojlantirish**		
26.	**1-ilova 80-band.** Aholiga madaniy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish, yoshlar ongida milliy-urf odatlar va qadriyatlarga hurmat tuyg'usini kuchaytirish bo'yicha amaliy choralar ko'rish.	1. Yoshlar o'rtasida xalq ijodiyoti va havaskorlik san'atini targ'ib etish bo'yicha iste'dodli yoshlar ishtirokida folklor-etnografik ansamblar tashkil etish. 2. Folklor-etnografik jamoalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida yoshlar uchun mos bo'lgan repertuarlar tayyorlash. 3. Mamlakatimizda tashkil etiladigan tadbirlarda ijodiy jamoalar ishtirokini ta'minlash.	2025-yil sentabr	Ijrochilar mablag'lari	Madaniyat vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi**	**Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish boshqarmasi** *(I.Xoldarova),* **Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlangich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi** *(A.Kamalov)*
V. "XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT" TAMOYILI			**LIGA ASOSLANGAN SIYOSATNI IZCHIL DAVOM ETTIRISH**		
96-maqsad: Fuqarolarning axborotni erkin izlash, olish va tarqatishga doir huquqlarini amalga oshirish kafolatlarini yanada kuchaytirish					

27.	**13-ilova 22-band.** Internet va ijtimoiy tarmoqlar uchun milliy foydali kontentlar yaratish choralarini ko'rish.	**1.** Internet va ijtimoiy tarmoqlardagi kontentlarni monitoring va tahlil qilish, bu boradagi xorijiy tajribani o'rganish.	2025-yil mart	—	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Madaniyat vazirligi,	**Axborot xizmati** *(D.Sobirova)*, **Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang'ich**
					Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,** Yoshlar ishlar agentligi, Ichki ishlar vazirligi	**tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi** *(AKamalov)*	
		2. Milliy qadriyatlar, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar targ'ibotiga doir milliy kontentlarni yaratish, ilmiy asoslarni o'rganish. **3.** Bolalar uchun xavfsiz internet muhitini yaratish.	2025-yil yil oxiriga qadar			**Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi** *(AKamalov)*, **Axborot xizmati** *(D.Sobirova)*	
		4. Internetdan xavfsiz foydalanish borasidagi ijtimoiy roliklar OAVlarda muntazam e'lon qilib borilishini yo'lga qo'yish.				**Axborot xizmati** *(D.Sobirova)*	
	97-maqsad: Jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda Qurolli Kuchlarning qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyatini va harbiy salohiyatini yanada oshirish						

28.	**13-ilova 25-band.** Aholi va yoshlar o'rtasida vatanparvarlik tarbiyasi va targ'ibotini yanada kuchaytirish, Vatan himoyachilarini tayyorlash va tarbiyalash tizimini rivojlantirish.	**1.** "Vatan tayanchi" otryadlari o'rtasida "Vatanparvarlar" harbiy-sport musobaqalarini o'tkazish. **2.** Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha tarmoq va hududiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.	2025-yil may 2025-yil davomida	Alohida hisob-kitoblarga asosan Mudofaa vaziriligi hamda Qurolli Kuchlar tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralarga har yili	Mudofaa vaziriligi, Yoshlar ishlari agentligi, **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,** harbiy-ma'muriy sektorlar rahbarlari	**Ta'lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi** *(AKamalov)*
		3. Umumta'lim tashkilotlarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'quv-uslubiy va dasturiy jihatdan takomillashtirib borish, fan o'qituvchilarining faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash, shuningdek, belgilangan tartibda bosqichma-bosqich moddiy-texnik jihatdan ta'minlab borish ishlarini amalga oshirish.	2025-yil davomida	ajratiladigan byudjet mablag'lari, byudjetdan tashqari mablag'lari hamda qonun hujjatlar bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar, Harbiy-ma'muriy sektorlarni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari		**O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi** *(D.Norboyeva),* **Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti** *(FKushnazarov)*
		4. Vatanni himoya qilishda qahramonlarcha halok bo'lgan o'g'lonlar hayoti va qahramonliklari haqida ko'rsatuv va lavhalar tayyorlash hamda namoyish etish.	2025-yil davomida			**Axborot xizmati** *(D.Sobirova)*
	98-maqsad: Faqulodda vaziyatlar va global iqlim o'zgarishi bilan bog'liq aholi hayotiga xavf soluvchi ofatlarni oldini olish					

29.	**13-ilova 33-band.** Respublika aholisining barcha qatlamlarini shahar va tumanlar hamda mahallalar kesimida zilziladan oldin, zilzila paytida va zilziladan so'ng harakat qilish qoidalariga o'rgatish ko'rsatkichini (qamrab olish darajasini) 50 foizga yetkazish.	Quyidagi tartibda aholini zilzilada harakatlanishga tayyorlash ishlarini amalga oshirish: maktabgacha ta'lim (tarbiyalanuvchilari), umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional (o'quvchilari) hamda oliy ta'lim tashkilotlarida (talabalari) muammoli- vaziyatli o'yinlar va mashg'ulotlarda, milliy elektron platforma orqali, shuningdek, aholini zilzila sharoitida harakatlanishga tayyorlashga mo'ljallangan mashg'ulotlar orqali tayyorgarlikdan o'tkazish; respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarning rahbarlari va xodimlari bilan yilik jamlash rejasi asosida,	2025-yil davomida	Davlat byudjeti, byudjetdan tashqari mablag'lar hamda homiylik mablag'lari	Favqulodda vaziyatlar vazirligi, **Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, manfaatdor vazirlik va idoralar, O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati,	**Xo'jalik bo'limi** *(A.Shernazarov)*

		shuningdek, fuqarolar bilan ixtiyoriy ravishda milliy elektron platforma orqali aholini zilzilada harakatlanishga tayyorlashga mo'ljallangan masofaviy o'quv kurslarini tashkil etish.

Ijro muddati	**Moliyalashtirish manbalari**	**Mas'ul vazirlik va idoralar**	**Ijrochilar**
		Yoshlar ishlari agentligi	

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 10-fevraldagi 44-son buyrug‘iga
2-ilova

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga yuklatilgan 2025-yilga mo‘ljallangan MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR

T/r	Maqsadli ko‘rsatkich	O‘lchov birligi	2025-yil	Icho-rak	II cho-rak	III chorak	IV cho-rak	Mas’ullar
1.1. Ta’lim tizimi islohotlari								
1-maqsad: Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolal						arning to‘liq qamrovini ta’minlash		
1.	Bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasi.	foiz	78	—	—	—	78	Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlash-tirish departamenti *(Sh. Muxamedov)*
2.	6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlov tizimi bilan qamrov darajasi.	foiz	98	—	—	—	98	
3.	Yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni.	ta	1 000	250	250	250	250	Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti *(FKushnazarov)*
4.	Toza ichimlik suv va sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta’minlangan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari ulushi.	foiz	83	—	—	82	83	
2-maqsad: Umumiy o‘rta ta’lim tizimida “Ta’lim uchun qulay muhit” dasturini amalga oshirish								

5.	Umumiy o‘rta ta’lim tizimida yaratiladigan yangi o‘quvchi o‘rinlari soni.	mingta	110	24	28	28	30	Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti *(FKushnazarov)*	
6.	Toza ichimlik suv va sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta’minlangan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari ulushi.	foiz	91	85	88	90	91		
3-maqsad: Umumiy o‘rta ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish									
7.	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun yaratiladigan yangi darsliklar, mashq daftarlari, o‘qituvchi metodika kitoblari soni.	nomda	65	15	15	20	15	O‘quv jarayonini metodik ta’minlash va darsliklar boshqarmasi *(D.Norboyeva)*	
8.	Umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga jalb etiladigan xorijiy til egalari — mutaxassislar soni.	nafar	500	110	130	130	130	Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi *(Sh.Temirova)*	
4-maqsad: Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalq aro standartlarga muvofiqlashtirish									
9.	Xorijiy mamlakatlarga malaka oshirish- va stajirovkaga yuborilgan pedagog xodimlar soni.	nafar	100	—	47	—	53	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi *(M. Yuldashev)*	
10.	Uzluksiz malakasi oshirilgan maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari xodimlar soni.	ming nafar	100	30	30	10	30		

11.	O'quvchilar uchun bepul maktab avtobuslari yo'lga qo'yilgan olis va chekka hududlarda joylashgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari soni.	dona	100	—	—	100	—	Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi *(E.Murodov)*, Moliya-iqtisod departamenti *(I.Siradjev)*
5-maqsad: Umumiy o'rta ta'limni rivojlantirish uchun xususiy sektorni keng jalb qilish								
12.	Nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari soni.	dona	100	21	26	26	27	Ta'lim tashkilotlari litsenziyalash bo'limi *(SMaxsudov)*
34-maqsad: Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish								
13.	Sog'lom turmush tarzini rivojlantirish maqsadida, ommaviy sport musobaqalarida aholi qamrovi.	million nafar	12	1	4	3	2	Maktabdan tashqari ta'limni tashkil etish boshqarmasi *(I.Xoldarova)*
14.	Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga jalb qilingan aholi ulushi.	foiz	30	5	15	25	30	
15.	Mahallalarda sport maydonchalarini barpo etish.	ta	378	—	—	140	238	

100-maqsad: Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini rivojlantirish							
16.	Ta’lim xorijiy tillarda olib borilayotgan maktablardagi badiiy adabiyotlar fondini boyitish.	ta	960 000	—	—	—	960 000	Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish boshqarmasi *(I.Xoldarova)*

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 10-fevraldagi 44-son buyrug‘iga
3-ilova

2025-yil “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili”da Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan suv resurslarini tejash va atrof muhitni muhofaza qilish yo‘nalishida kechiktirib bo‘lmaydigan CHORA-TADBIRLAR REJASI

T/r	Vazifalar	Amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul vazirlik va idoralar	Ijrochilar
1.	16-ilova 32-band. Ijtimoiy soha obyektlarini chiqindi konteynerlari bilan ta’minlash.	1. Maktabgacha ta’lim, maktab, texnikumlar, sog‘liqni saqlash muassasalarini to‘liq xatlovdan o‘tkazish va chiqindi konteynerlariga bo‘lgan ehtiyojini aniqlash. 2. Chiqindi konteynerlari bilan ta’minlash.	2025-yil avgust	Ijtimoiy soha muassasalariga ajratilgan budjet mablag‘lari va budjetdan tashqari mablag‘lar	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimlari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi	Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti *(F.Kushnazarov)*

2.	16-ilova 33-band. Ta'lim muassasalarida "Ekologik burchaklar"ni tashkil etish.	**1.** Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim maktablarida qo'l mehnati bilan yaratilgan asarlar, o'quvchilar tomonidan chizilgan rasmlar va ijodiy ishlarni o'z ichiga olgan "Ekologik burchaklar"ni tashkil etish. **2.** Maktablarda I va III chorakning so'ngida "Tabiatni asrashda mening hissam" mavzusida turkum tadbirlarni tashkil etish. **3.** O'quv yili yakunlari bilan respublika miqyosida "Eng namunali eko maktab" tanlovini o'tkazish.	2025/2026-o'quv yilidan boshlab har yili	Mablag' talab etilmaydi	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Ekologiya vazirligi, manfaatdor vazirlik idoralar	Ekologik diplomatiya bo'limi (*X.Axmedov*)
3.	16-ilova 34-band. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ekologik yo'lakchalar" tashkil etish.	1. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan o'simlik va hayvonlar haqida dastlabki tushunchalarni berish. 2. Muhofaza qilinadigan o'simlik va hayvonlar rasmlarini chizish orqali tarbiyalanuvchilarda dastlabki ekologik bilimlarni shakllantirish.	2025/2026-o'quv yilidan boshlab har yili	Mablag' talab etilmaydi	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Ekologiya vazirligi, vazirlik idoralar	Ekologik diplomatiya bo'limi (*X.Axmedov*)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashini tuzish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” 2019-yil 2-sentabradgi O‘RQ-562-son Qonunining 13-moddasiga muvofiq **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat -kengashi tarkibi (keyingi o‘rinlarda - Maslahat kengashi) 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashining 2025-yilga mo‘ljallangan yillik ish rejasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar va muassasalar rahbarlari bir hafta muddatda mazkur buyruq asosida o‘zlarining maslahat-kengashi tarkibini tasdiqlasin va nizom talablariga muvofiq faoliyati yo‘lga qo‘yilishini qayta ko‘rib chiqsin.

3. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023-yil 14-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi ijrosi to‘g‘risida”gi 241-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari F.Boqiyev zimmasiga yuklansin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh,
2025-yil 12-fevral,
47-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 12-fevraldagi
47-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashi TARKIBI

T/r F.I.SH. Lavozimi

1. Boqiyev Farhod - Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri Esanovich o‘rinbosari, maslahat-kengashi raisi
2. Kamalov Azamat - Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni Jamalovich muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i, maslahat-kengashi raisi o‘rinbosari
3. Muxamedov Sherzod - Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini Nurmuxamedovich muvofiqlashtirish departamenti direktori, a’zo
4. Sharipov Ilyosbek - Inson resurslarini rivojlantirish Ilhomovich boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
5. Ibrohimov Oxunjon - Yuridik boshqarma boshlig‘i, a’zo
6. Xoldorova Indira - Maktabdan tashqari ta’limni Abdukarimovna tashkil etish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
7. Sobirova Dilfuza - Axborot xizmati rahbari, a’zo Azimjonovna
8. Mamadaliyev - O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi Abdukamol boshlig‘i, a’zo Abdurahimovich
9. Ismoilova Kamola - Ta’lim tashkilotlarida tarbiyaviy ishlarni va Valijanovna chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni muvofiqlashtirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, kotib

I*zoh: Maslahat kengashi tarkibi a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga tayinlangan yoki tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 12-fevraldagi
47-son buyrug‘iga
2-ILOVA

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashining 2025-yilga mo‘ljallangan yillik ISH REJASI

T/r	Chora-tadbirlar	Ijro muddati	Mas’ullar
1.	Vazirlikning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasida davlat dasturlari, milliy harakatlar rejalari va strategiyalarni ishlab chiqishdagi ishtirokini kengaytirish choralarini ko‘rish.	2025-yil fevral	Maslahat-kengashi a’zolari
2.	Vazirlik hamda tizimda jins bo‘yicha bevosita va bilvosita kamsitishga olib kelishi mumkin bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlar va axborotlarni o‘rganish, muntazam ravishda ularni yig‘ish hamda tahlil qilish.	Yil davomida	Maslahat-kengashi a’zolari
3.	Vazirlik hamda tizimda jismoniy va yuridik shaxslarning xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarning buzilishiga doir murojaatlar ko‘rib chiqilishi hamda ularni tiklash bo‘yicha ko‘rilgan choralarni o‘rganish.	Yil davomida	Maslahat-kengashi a’zolari
4.	Vazirlik hamda tizimda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha davlat xizmatchilarining madaniyat darajasini va xabardorligini oshirish.	2025-yil iyun	Maslahat-kengashi a’zolari
5.	Ishga qabul qilishda, mansabi o‘sishda va rahbarlik lavozimlariga tayinlanishida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlarni yaratish.	Yil davomida	Maslahat-kengashi a’zolari

6.	Xotin-qizlar va erkaklarning sog‘lig‘ini saqlashni ta’minlaydigan, xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish.	Yil davomida	Maslahat-kengashi a’zolari
7.	Vazirlik hamda tizimning rasmiy veb-saytida gender tenglik sahifasini materiallar bilan yangilanib borish.	Yil davomida	Maslahat-kengashi a’zolari
8.	Vazirlik hamda tizimdagi ijtimoiy himoyaga muhtoj va og‘ir turmush sharoitida yashayotgan xotin-qizlar va erkaklarni qo‘llab-quvvatlash yuzasidan tegishli choralarni belgilash.	Yil davomida	Maslahat-kengashi a’zolari
9.	Amaldagi qonun va qonunosti hujjatlar, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarni xodimlarga yetkazib borish maqsadida o‘quvlar tashkil etib borish.	Yil davomida	Maslahat-kengashi a’zolari
10.	“Sog‘lom turmush tarafdorimiz” shiori ostida sport turlari bo‘yicha xotin-qizlar va erkaklar orasida musobaqalarni tashkil etib borish.	Yil davomida	Maslahat-kengashi a’zolari
11.	“Erkaklar va ayollar, shu jumladan qizlar uchun teng imkoniyatlar va teng huquqlarning kafolatlari” mavzusida o‘quv seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish.	2025-yil har chorakda	Maslahat-kengashi a’zolari
12.	“Biz zo‘ravonlikka qarshimiz” mavzusida xodimlar bilan targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish.	2025-yil noyabr-dekabr	Maslahat-kengashi a’zolari

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug‘ullanadigan kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkilotlari reyestrini tasdiqlash bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi komissiya tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 20-dekabrdagi 867-son qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug‘ullanadigan kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkilotlari reyestrini (keyingi o‘rinlarda - Reyestr) tasdiqlash bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi komissiya (keyingi o‘rinlarda - komissiya) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev):

Reyestrni amaldagi qonunchilik tartibiga muvofiq yuritish choralarini ko‘rsin;

malaka oshirish faoliyati bilan shug‘ullanadigan nodavlat ta’lim tashkilotlaridan reyestr orqali kelib tushgan murojaatlarni har oyda ko‘rib chiqish va natijasi bo‘yicha komissiyaga ma’lumot taqdim etilishini ta’minlasin.

3. Komissiya (S.Radjabovga)ga:

yil davomida malaka oshirish faoliyati bilan shug‘ullanadigan nodavlat ta’lim tashkilotlarini Reyestrga kiritish yoki undan chiqarish bo‘yicha qarorlar qabul qilish;

belgilangan tartibda malaka oshirish faoliyati bilan shug‘ullanadigan nodavlat ta’lim tashkilotlari va ular tomonidan tashkil qilinadigan malaka oshirish kurslari haqidagi ma’lumotlarni

Reyestrga kiritishni ta’minlash;

Reyestrga kiritish yoki kiritishni rad etish bo‘yicha qarorni nodavlat ta’lim tashkilotiga Reyestr hamda vazirlikning rasmiy veb-saytida e’lon berish orqali yetkazish vazifalari yuklatilsin.

4. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (F.Jamuratova) Reyestrga kiritilgan oliy ta’lim muassasalari va nodavlat ta’lim tashkilotlari bilan vazirlik o‘rtasida shartnomalar tuzilishi hamda ular tomonidan malaka oshirgan tinglovchilar haqidagi ma’lumot (sertifikat)larni A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (keyingi o‘rinlarda - Institut) tomonidan tegishli mablag‘ to‘lanishi yuzasidan murojaati asosida to‘lovlarning amalga oshirilishini ta’minlasin.

5. Institut mablag‘ ajratish uchun taqdim etilgan ma’lumotlarning haqqoniyligi va to‘g‘riligiga javobgar hisoblanadi.

6. Institut (A.Ismailov) maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug‘ullanadigan pedagog kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalari hamda Reyestrga kiritilgan nodavlat ta’lim tashkilotlarida haqiqatda malaka oshirgan va belgilangan tartibda sertifikatga ega bo‘lgan tinglovchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni navbatdagi oyning 3-kuniga qadar tegishli mablag‘ to‘lanishi yuzasidan vazirlikka murojaat qilib borsin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2023 -yil 21-iyundagi “Umumta’lim maktablari pedagog xodimlari malakasini oshirish faoliyati bilan shug‘ullanadigan ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotlari reyestrini tasdiqlash bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi komissiya tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 175-sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Devonxona (X.Raximbayeva) o‘matilgan tartibda ushbu buyruqni bir kun muddatda vazirlikning tegishli tarkibiy boshqarma va bo‘limlari hamda tegishli tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

9. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 12-fevral,
50-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 12-fevraldagi
50-son buyrug‘iga
ILOVA

Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining malakasini oshirish faoliyati bilan shug‘ullanadigan kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkilotlari reyestrini tasdiqlash bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi komissiya TARKIBI

T/r	F.I.SH.	Lavozimi
1.	S.Radjabov	Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri o’rinbosari, komissiya raisi
2.	M.Yuldashev	Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
3.	I.Siradjev	Moliya-iqtisod departamenti direktori, a’zo
4.	O.Ibrohimov	Yuridik boshqarma boshlig‘i v.v.b., a’zo
5.	FJamuratova	Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi boshlig‘i, a’zo
6.	S.Maxsudov	Ta’lim tashkilotlarini litsenziyalash bo‘limi boshlig‘i, a’zo
7.	D.Dustov	Pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirish bo‘limi bosh mutaxassisi, a’zo
8.	M.Murodov	Pedagog kadrlarni kasbiy rivojlantirish bo‘limi yetakchi mutaxassisi, kotib

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2025-2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 12-fevraldagi 83-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2025–2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 12-fevraldagi 83-son qarori (keyingi o‘rinlarda - Qaror)da belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman**:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 12-fevraldagi 83-son qaroriga muvofiq:

2025-yil yakuniga qadar respublikadagi kambag‘al oilalarning 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrov darajasini 80 foizga yetkazish;

2025–2026-yillarda 3-7 yoshli bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlangani ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2025–2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti (Kushnazarov), Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov):

aholining yashash darajasi va to‘lov qobiliyati yuqori bo‘lgan (kambag‘al oilalar kam bo‘lgan) mahallalarda davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;

olis va chekka (tuman va shaharlar markazida joylashmagan) mahallalarda oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari;

aholining to‘lov qobiliyati past (kambag‘al oilalar nisbatan ko‘p bo‘lgan) hamda demografik o‘sish darajasi yuqori bo‘lgan mahallalarda davlat, shuningdek, xalqaro moliya institutlari kredit

va grantlari hisobidan davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari tashkil etilishini inobatga olsin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari:

bir oy muddatda qamrov darajasi past bo‘lgan mahallarni aniqlab, ro‘yxatni shakllantirsin;

shakllantirilgan ro‘yxat asosida aholining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy soha obyektlarining bo‘sh binolarida qisqa muddatli guruhlar tashkil etsin;

har oy yakunida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan vazirlikning Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamentiga ma’lumot taqdim etsin.

5. Strategik rivojlantirish, xalqaro reytinglar va jahon savdo tashkiloti masalalari bilan ishlash boshqarmasi (O.Rahmatillayev), Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov) “Bolalarning erta yoshdan rivojlanishiga ko‘maklashish” loyihasi doirasida Jahon banki tomonidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan 2025-yil 1-martga qadar:

qarorning 3-ilovasida belgilangan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining o‘yin maydonchalari va tayyorlov guruhlarini stol-stul bilan jihozlash;

Surxondaryo viloyati Boysun tumanining chekka hududlardagi bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga olib kelish hamda uylariga olib borib qo‘yish uchun bitta avtobus xarid qilish choralarini ko‘rsin.

6. Axborot xizmati (D.Sobirova) maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borsin.

7. Maktabgacha ta’lim tizimini faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (Sh.Muxamedov), Yuridik boshqarma (O.Ibrohimov) ikki oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirish choralarini ko‘rsin.

8. Devonxona (X.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda vazirlikning tegishli tarkibiy bo‘linmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari T.Komilov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 14-fevral,
52-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirining 2025-yil 14-fevraldagi
52-sonli buyrug‘iga
ILOVA

2025-2026-yillarda bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish bo‘yicha Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining chora-tadbirlar
DASTURI

T/r	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbalari	Mas’ul ijrochilar	
					Markaziy apparati, tasarrufdagi tashkilotlar	Vazirlik rahbariyati
1.	Bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini 80 foizga yetkazish .	1. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari doirasida yangi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qurish, mavjud ta’mir talablarni rekonstruksiya qilish. Bunda 2025-yilda 14 tani yangi quriladi, 83 tani rekonstruksiya qilinadi. 2. Maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirishga qo‘shimcha bola o‘rinlarini yaratish bo‘yicha yangi maktabgacha ta’lim tashkilotlarini qurish yoki mavjudlarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturini shakllantirish. 3. Yangi 2 000 ta nodavlat, jumladan, xususiy, davlat-xususiy sheriklik	2025-2026-yillar Har yili sentabr 2025-2026-yillar	Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligiga ajratilgan mablag‘lar doirasida	Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti **(F.Kushnazarov,)** Maktabgacha ta’lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti **(Sh.Muxamedov),** Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari	Vazir o‘rinbosari **T.Komilov**

		asosidagi va oilaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish. Bunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari mavjud bo'lmagan mahallalarda: chekka va olis mahallalarda oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari; bo'sh turgan ijtimoiy soha obyektlarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini yo'lga qo'yish.	2025-2026-yillar	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida	Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti **(Sh.Muxamedov),** Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari	Vazir kotibiyati boshlig'i **J.Shamshiyev**
2.	6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlov guruhlari bilan qamrab to'liq olish.	1. 6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishni ta'minlash bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlarga erishish ishlarini davom ettirish. Bunda: qisqa muddatli va to'liq kunlik tayyorlov guruhlarini; to'liq koeffitsiyentda ishlamayotgan umumiy o'rta ta'lim maktablarining bo'sh xonalarida bir yillik majburiy tayyorlov guruhlarini tashkil qilish. 2. Maktabgacha ta'limning muqobil shakllarini joriy etish.	2025-2026-yillar davomida har yili yanvar Doimiy	-	Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti **(F.Kushnazarov,)** Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari	Vazir o'rinbosari **T.Komilov**
3.	Aholining yashash darajasi va to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan (kambag'al oilalar kam bo'lgan) mahallalarda davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish.	1. Mahalliy hokimliklar tomonidan aholining yashash darajasi va to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan mahallalarni tanlab olish va ularning ro'yxatini shakllantirish. 2. O'z mablag'lari hisobidan davlat- xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish istagini bildirgan tashabbuskor tadbirkorlarni aniqlash. 3. Tadbirkorlar tomonidan "Maktabgacha ta'limni boshqarish" axborot tizimida davlat- xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish uchun taqdim				

4.	Aholining to'lov qobiliyati past (kambag'al oilalar nisbatan ko'p bo'lgan) va demografik o'sish darajasi yuqori bo'lgan mahallalarda davlat, shuningdek, xalqaro moliya institutlari kredit va grantlari hisobidan davlat- xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish.	etilgan elektron arizalar asosida davlat-xususiy sheriklik bitimlarini tuzish.	2025-2026-yillar	Xalqaro moliya institutlari mablag'lari doirasida	Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti **(F.Kushnazarov,)** Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti **(Sh.Muxamedov),** Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari	Vazir o'rinbosari **T.Komilov**
5.	Respublikaning chekka va olis mahallalarida oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish.	1. Respublikaning chekka va olis mahallalarini aniqlash va ularning reestrini shakllantirish. 2. Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil qilish istagini bildirgan yakka tartibdagi tadbirkorlar ro'yxatini shakllantirish. 3. Yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan o'rnatilgan tartibda bitimlarni imzolash. 4. Maktabgacha ta'limning afzalliklari bo'yicha ota-onalar o'rtasida targ'ibot ishlarini olib borish va bolalarni qamrab olish.	2025-2026-yillar	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida, ijrochilar mablag'lari hisobidan	Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti **(F.Kushnazarov),** Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti **(Sh.Muxamedov),** Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari	Vazir o'rinbosari **T.Komilov**

6.	Bo'sh turgan ijtimoiy soha muassasalarining binolarida qisqa muddatli guruhlarni tashkil etish.	1. Bo'sh turgan ijtimoiy soha obyektlari va ulardagi bo'sh turgan xonalarning holatini aniqlash. 2. Bo'sh turgan obyektlar joylashgan mahallalardagi maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalar ro'yxatini shakllantirish. 3. Bo'sh turgan xonalarni ta'mirlash va bolalarning yosh xususiyatini inobatga olgan holda jihozlash. 4. Qisqa muddatli guruhlar faoliyatini yuritish uchun malakali pedagoglarni ishga jalb qilish va ularning faoliyatini moliyalashtirish. 5. Qisqa muddatli guruhlarga bolalarni qamrab olish.	2025-2026-yillar	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida	Maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti **(Sh.Muxamedov),** Soha infratuzilmasini rivojlantirish departamenti **(F.Kushnazarov),** Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari	Vazir kotibiyati boshlig'i **J.Shamshiyev**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitishda tadbirkorlik subyektlarini jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 11-fevraldagi 78-son qarori ijrosi haqida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitishda tadbirkorlik subyektlarini jalb etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 11-fevraldagi 78-son qarori ijrosini ta’minlash hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini kasb-hunarga yo‘naltirish, maktabga tadbirkorlik subyektlarini manfaatli hamkorlik asosida jalb etish maqsadida buyuraman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-fevraldagi 78-son qarori (keyingi o‘rinlarda - qaror) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitishda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi hamkorlik qaror bilan tasdiqlangan o‘quvchilarni kasb-hunarga o‘qitishda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari va tadbirkorlik subyektlarining o‘zaro hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risida nizomga muvofiq amalga oshirilsin.

3. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi (A.Mamadaliyev), o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi (L.Gaynutdinova):

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan birgalikda 2024-2025-o‘quv yili yakuniga qadar maktablar bitiruvchilarini egallaydigan kasb-hunari bo‘yicha amaliy imtihondan o‘tkazish va ularga elektron sertifikat berish tartibini joriy etish choralarini ko‘rsin;

o‘quvchilarni darsdan tashqari vaqtlarida kasb-hunarga o‘qitishda tadbirkorlarni jalb qilish amaliyotini 2025-2026-o‘quv yilida tajriba-sinov tariqasida Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida o‘tkazib, tajriba-sinov natijalaridan kelib

chiqqan holda, ushbu amaliyotni boshqa hududlarda ham joriy etish yuzasidan takliflarni 2026-yil 1-iyulga qadar Vazirlar Mahkamasiga kiritish vazifalari yuklatilsin.

4. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘limi (A.Mamadaliyev), Soha infratuzilmani rivojlantirish departamenti (F.Kushnazarov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlariga:

har yili 20-aprelga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklari bilan kelishgan holda, o‘quvchilarni darsdan bo‘sh vaqtlarida kasb-hunarga o‘qitish joriy etiladigan maktablarga tegishli bo‘sh binolarning manzilli ro‘yxatini shakllantirib, Savdo-sanoat palatasi va Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga taqdim etish;

Savdo-sanoat palatasi bilan birgalikda har yili 1-avgustga qadar o‘quvchilarni darsdan bo‘sh vaqtlarida kasb-hunarga o‘qitish istagini bildirgan “20 ming tadbirkor - 500 ming malakali mutaxassis” dasturi ishtirokchisi sertifikatiga ega bo‘lgan tadbirkorlar va maktablar o‘rtasida bo‘sh binoni tekin foydalanishga berish to‘g‘risida shartnoma tuzishga ko‘maklashsin;

ikki oy muddatda yirik jihozlar bilan ta’minlanadigan, mavjud ustaxonalari joriy ta’mirlanadigan va yengil tipdagi ustaxonalar quriladigan maktablar hamda xarid qilinadigan jihoz, asbob-uskuna va xomashyo materiallari ro‘yxatlarini shakllantirsin va tasdiqlash uchun vazirlik rahbariyatiga kiritsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari mahalliy hokimliklar bilan birgalikda:

2025-yildan boshlab o‘quvchilarni ularning iqtidori va qiziqishlariga mos kasb-hunarga yo‘naltirish, zamonaviy kasblar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida 8-sinf o‘quvchilari uchun Savdo-sanoat palatasining hududiy bo‘limlari bilan hamkorlikda sanoat, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, agrotexnologiya sohalaridagi korxona va tashkilotlarga ekskursiyalar tashkil etish;

har yili 1-aprelga qadar kelgusi o‘quv yilida kasb-hunarga o‘qitish joriy etiladigan maktablar ro‘yxatini shakllantirish va tasdiqlash uchun vazirlik rahbariyatga kiritish;

kasb-hunar o‘qitish tashkil etilgan maktablarni mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan zarur jihoz va xomashyo bilan ta’minlash;

tadbirkorlik subyektlari tomonidan kasb-hunarga o‘qitish tashkil etilgan maktablarning 10-11-sinf o‘quvchilarini ularning ota-onasi yoki o‘rnini bosuvchi shaxslardan birini xabardor qilish asosida kasb-hunarga o‘qitish jarayonida mehnat qonunchiligiga muvofiq tadbirkorlik subyektlarida belgilangan oylik ish haqining kamida 50 foizi miqdorida ish haqi olishni tashkil etish choralarini ko‘rsin.

6. Qaror bilan maktablarning bino va inshootlaridan foydalanishda quyidagilar taqiqlanganligi inobatga olinsin:

bino va inshootlarni xususiylashtirish;

o‘quvchilarning sog‘lig‘i va xavfsizligiga salbiy ta’sir qiluvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish;

binolar va inshootlar, shu jumladan, yerosti inshootlarini qurish (yengil konstruksiyali inshootlar bundan mustasno);

ko‘ngilochar, umumiy ovqatlanish va savdo obyektlarini tashkil etish.

7. Devonxona (X.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari, hududiy maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari hamda vazirlik tasarrufidagi tashkilotlar hamda muassasalarga yetkazilishini ta’minlasin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari Sh.Karimov va vazir o‘rinbosari T.Komilov zimmasiga yuklansin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 19-fevral,
58-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Uzoq va chekka hududlarda joylashgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlarini joriy etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmoni ijrosini ta’minlash hamda respublikaning olis va chekka hududlarda joylashgan nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlarini yo‘lga qo‘yish maqsadida buyuraman:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152- son Farmonida:

2025-yil 1-martdan boshlab tajriba-sinov tariqasida respublikaning uzoq va chekka hududlarida joylashgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlarini joriy etilishi;

“Bolalarning erta yoshdan rivojlanishiga ko‘maklashish” loyihasi doirasida Jahon banki tomonidan ajratilgan mablag‘lar hisobidan 4 dona auditoriya ko‘rinishida avtobuslarni jihozlash amalga oshirilishi;

avtobuslar haydovchilarining ish haqi, yoqilg‘i-moylash materiallari uchun va boshqa xarajatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi pedagogik mahorat markazlarining pullik xizmatlaridan tushgan mablag‘lar hisobidan qoplanishi belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida tajriba-sinov tariqasida mobil malaka oshirish xizmatlarini yo‘lga qo‘yish uchun 4 dona auditoriya ko‘rinishida jihozlangan avtobuslar tegishli hududiy pedagogik mahorat markazlari balansiga berilishi belgilansin.

3. Strategik rivojlantirish, xalqaro reytinglar va Jahon savdo tashkiloti masalalari bilan ishlash boshqarmasi (O.Raxmatillayev) 2025-yil 1-martga qadar avtobuslarning Qoraqalpog‘iston

Respublikasi, Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari pedagogik mahorat markazlariga yetkazib berilishini ta’minlasin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari pedagogik mahorat markazlari direktorlari 2025-yil 1-martdan boshlab:

jihozlangan avtobuslarni belgilangan tartibda pedagogik mahorat markazi balansiga qabul qilsin;

tajribali avtobus haydovchilarini ishga olsin;

tajriba-sinov tariqasida olis va chekka hududlarda joylashgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun auditoriya ko‘rimshidagi avtobuslar negizida mobil malaka oshirish xizmatlarini yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rsin.

5. Mobil malaka oshirish xizmatlari uchun ajratilgan auditoriya ko‘rinishidagi avtobuslardan foydalanish bo’yicha yo‘riqnoma ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (N.Abdunazarova) mobil malaka oshirish kursining o’quv materiallarini (mashg‘ulot ishlanmalari, taqdimot, tarqatma materiallar, nazorat va baholash materiallari) ishlab chiqsin hamda tegishli hududiy pedagogik mahorat markazlariga metodik yordam ko‘rsatsin.

7. Qoraqalpog’iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, Navoiy, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari tegishli pedagogik mahorat markazi bilan hamkorlikda:

besh kun muddatda mobil malaka oshirish shaklida nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy salohiyatini oshirish maqsadida har oyda kamida bir marta o‘quv seminarlarini tashkil etish bo‘yicha tuman (shahar)lar kesimida

reja-jadvalni tasdiqlasin;

reja-jadvalga asosan o‘quv seminarlarini sifatli tashkil etish va natijadorligini ta’minlash choralarini ko’rsin.

8. Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish boshqarmasi (M.Yuldashev) maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlarining tashkil etilishini doimiy nazorat qilib borsin.

9. Axborot xizmati (D.Sobirova) olis va chekka hududlarda joylashgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari

uchun mobil malaka oshirish kurslarini tashkil etish jarayonlarini vazirlikning rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida keng yoritib borilishini ta’minlasin.

10. Devonxona (H.Raximbayeva) bir kun muddatda ushbu buyruqni vazirlik markaziy apparati tarkibiy bo‘limlariga, tegishli tizim tashkilotlariga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazsin.

11. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari S.Radjabov zimmasiga yuklansin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 19-fevral,
59-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 9-fevraldagi
59-son buyrug‘iga
ILOVA

Olis va chekka hududlarda joylashgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlariga tajriba-sinov tariqasida mobil malaka oshirish xizmatlarini ko‘rsatish uchun auditoriya ko‘rinishidagi avtobuslardan foydalanish bo‘yicha
YO‘RIQNOMA

1. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmoni ijrosini ta’minlash

yuzasidan ishlab chiqilgan va mobil malaka oshirish xizmatlari uchun ajratilgan auditoriya ko‘rinishidagi avtobuslardan foydalanish tartibini belgilaydi.

Mazkur Yo‘riqnoma maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlariga tajriba-sinov tariqasida mobil malaka oshirish xizmatlarini ko‘rsatish maqsadida pedagogik mahorat markazlariga ajratilgan avtobuslar uchun amal qiladi.

2. Avtobuslardan uzoq va chekka hududlarda joylashgan davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun mobil malaka oshirish xizmatlarini ko‘rsatish, ya’ni uzluksiz kasbiy rivojlantirish (“Metodik mahorat kuni” va “Metodik mahorat soati”) tadbirlarini tegishli hududlarga borgan holda trening, seminar va boshqa shakllarda tashkil etish maqsadida foydalaniladi.

3. Mazkur Yo‘riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

auditoriya ko‘rinishidagi avtobus - dars va boshqa o‘quv mashg‘ulotlarini olib borish uchun maxsus jihozlangan hamda zarur sharoitlarga ega bo‘lgan avtobus;

yo‘nalish - avtotransport vositasining belgilangan punktlar

oralig‘ida amalga oshiradigan safari davomidagi yo‘l;

qatnov - avtotransport vositasining jo‘nash punktidan belgilangan punktga qadar amalga oshiradigan harakati;

shahar tashishlari - shahar yoki shahar tipidagi qo‘rg‘on chegarasida amalga oshiriladigan tashishlar;

shahar atrofi tashishlari - shahar yoki shahar tipidagi qo‘rg‘on chegarasidan tashqarida ellik kilometr masofadagi tashishlar;

shaharlararo tashishlar - shahar yoki shahar tipidagi qo‘rg‘on chegarasidan tashqarida ellik kilometrdan ortiq bo‘lgan masofaga tashishlar.

2. Auditoriya ko‘rinishidagi avtobuslarni tasarruf qilish

4. Auditoriya ko‘rinishidagi avtobuslar (keyingi o‘rinlarda - Avtobuslar) O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining taqsimotiga muvofiq uzoq va chekka hududlarda joylashgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun tajriba-sinov tariqasida mobil malaka oshirish xizmatlarini joriy etish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar Pedagogik mahorat markazlariga (keyingi o‘rinlarda - Markazlar) ajratiladi.

5. Avtobuslar ular biriktirilgan markazlarning balansiga belgilangan tartibda kirim qilinadi va moddiy javobgar shaxs belgilanadi.

6. Avtobus haydovchisining ish haqi, yoqilg‘i-moylash materiallari uchun va boshqa harajatlari markazlarning pullik xizmatlaridan tushgan mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

7. Avtobuslar belgilangan tartib va muddatlarda texnik ko‘rikdan o‘tkazib turiladi.

3. Auditoriya ko‘rinishidagi avtobuslardan foydalanishni tashkil qilish

8. Avtobuslar dars mashg‘ulotlarini olib boradigan o‘qituvchilardan boshqa yo‘lovchilarni tashish taqiqlanadi.

9. Avtobuslar tasdiqlangan mashg‘ulotlar (dars, trening, seminar va boshqalar) jadvali va Markaz rahbarining tegishli buyrug‘iga binoan oldindan belgilangan (uzoq yoki chekka) hududga yuboriladi.

10. Markazning moddiy javobgar xodimi avtobusni uzoq yoki chekka hududga yuborishdan oldin quyidagilarni amalga oshiradi:

- avtobusning texnik holatini nazoratdan o‘tkazadi;
- avtobus haydovchisining sog‘ligini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilishini tashkil qiladi;
- avtobus ichidagi o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun o‘rnatilgan jihoz va texnik vositalarning ishga yaroqliligini ta’minlaydi;
- avtobusni yetarli yonilg‘i va moylash materiallari bilan ta’minlaydi;
- avtobus haydovchisiga aniq manzillar ko‘rsatilgan “Yo‘l varaqasi”ni taqdim etadi.

11. Markaz rahbarining kasbiy rivojlantirish bo‘yicha o‘rinbosari avtobusni uzoq yoki chekka hududga yuborishdan oldin quyidagilarni amalga oshiradi:

- avtobus boradigan uzoq yoki chekka hududdagi malaka oshirishga jalb qilinadigan pedagog xodimlar ro‘yxatini shakllantiradi;
- avtobus borib mobil malaka oshirish xizmatini ko‘rsatadigan joy manzilini belgilaydi;
- mobil malaka oshirish xizmati ko‘rsatiladigan vaqt va manzil haqida uzoq yoki chekka hududdagi pedagog xodimlarni xabardor qiladi;
- mobil malaka oshirish mashg‘ulotlarini olib boradigan professor- o‘qituvchining dars berishga tayyor ekanligini nazoratdan o‘tkazadi;
- avtobusga joylashtirilgan o‘qitishning texnik vositalari va ular orqali taqdim etiladigan kontentni dars mashg‘ulotlarini olib borishga tayyorligini ta’minlaydi.

4. Yakuniy qoidalar

12. Avtobusdan ushbu yo‘riqnomada belgilangandan tashqari boshqa maqsadda foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son Farmoni, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, maqsadida **buyuraman:**

1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash jarayonida foydalanish zaruratini inobatga olgan holda “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining muvaqqat kasbiy standarti” (keyingi o‘rinlarda - Muvaqqat kasbiy standart) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog (tarbiyachi) kadrlari malakasini oshirish kurslarining Muvaqqat kasbiy standart talablari asosida takomillashtirilgan o‘quv dasturlari 2-3-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

3. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog (tarbiyachi) kadrlarini qayta tayyorlash kurslarining Muvaqqat kasbiy standart talablari asosida takomillashtirilgan o‘quv dasturlari 4-7-ilovalarga muvofiq tasdiqlansin.

4. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan “Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi” bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash dasturlarini Muvaqqat kasbiy standart talablari asosida takomillashtirilgani inobatga olinsin.

5. Devonxona (H.Raximbayeva) mazkur buyruqni bir kun muddatda tegishli tarkibiy bo‘linmalar va tasarrufdagi respublika tashkilotlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha

va maktab ta’limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

6. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning o‘rmbosari S.Radjabov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **X.Umarova**

Toshkent sh.,
2025-yil 19-fevral,
60-son

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 19-fevraldagi
60-son buyrug‘iga
1-ILOVA

Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining muvaqqat kasbiy standarti

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog xodimlarining muvaqqat kasbiy standarti (keyingi o’rinlarda - Muvaqqat kasbiy standart) pedagogning shaxsiy kasbiy fazilatlari, bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan asosiy talablarni belgilaydi.

2. Mazkur Muvaqqat kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

bilim - mehnat bilan bog’liq faoliyat uchun ta’lim olish va shaxsiy tajriba orqali muhim ma’lumotlarni o‘zlashtirish natijasi;

Kasbiy standart - maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining shaxsiy va kasbiy sifatlari, bilim, ko‘nikma va malakalariga doir talablar majmui;

kompetensiya - kasbiy faoliyatda tegishli bilim, ko‘nikma, malaka, qobiliyat va qadriyatlarni qo‘llash va amalga oshirish;

ko‘nikma - insonning muayyan mehnat vazifalarini bajarish qobiliyatini tavsiflovchi ta’lim jarayonida yoki shaxsiy tajriba orqali egallagan sifati;

malaka - ta’lim jarayonida to‘plangan tajriba va shaxsning muayyan mehnat vazifalarini bajarish qobiliyatini tavsiflovchi shaxsiy tajriba;

pedagog - maktabgacha ta’lim sohasida ta’lim-tarbiya jarayonini amalga oshiruvchi tashkilot bilan mehnat munosabatlarida bo‘lgan va maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchisiga (keyingi o‘rinlarda - bola) ta’lim va tarbiya berish vazifalarini bajaradigan jismoniy shaxs;

tajriba - mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonida egallangan bilimlar va malakalar.

3. Muvaqqat kasbiy standart:

ish beruvchilar tomonidan kadrlar siyosatini shakllantirish,

pedagoglarni tanlash;

mehnat shartnomalarini tuzish, lavozim vazifalarini ishlab chiqish,

mehnatga haq to‘lash;

pedagoglar malakasini oshirishni tashkil etish, pedagogning kasbiy standarti va malaka toifalariga muvofiqligini baholash jarayonida qo‘llaniladi.

4. Muvaqqat kasbiy standart hududlarning madaniy, demografik va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda to‘ldirilishi mumkin.

2-bob. Muvaqqat kasbiy standart tamoyillari

5. Ushbu Muvaqqat kasbiy standart bolani rivojlantirish dasturlari, pedagogika va psixologiya sohasida to‘plangan tajribadan kelib chiqqan holda quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

bolani sifatli parvarish qilish, rivojlantirish va tarbiyalash uchun sharoit yaratish;

bolaning qiziqishlariga muvofiq unga qulaylik yaratish;

har bir bolaning individualligini hurmat qilish, hamdard bo‘lish, bolaning his-tuyg‘ulari, fikrlari va qadriyatlarini qabul qilish;

ta’lim-tarbiya jarayonida bolaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash;

pedagoglarning inklyuzivlik tamoyillarini qo‘llash huquqiga asoslangan ta’limga yondashuv;

sog‘lom muhit yaratuvchi amaliyot va texnologiyalarni qo‘llash;

bolalar bilan muloqot va o‘zaro ijtimoiy munosabatlarda maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila va mahalla hamkorligini yo‘lga qo‘yish.

3-bob. Muvaqqat kasbiy standartni maktabgacha ta’lim tashkiloti faoliyatida qo‘llash tartibi

6. Muvaqqat kasbiy standart foydalanuvchi subyektlar maqomiga ko‘ra quyidagilar uchun qo‘llaniladi:

a) pedagoglarga:

kasbga qo‘yiladigan talablarni tushunish;

o‘z malakasini oshirishni rejalashtirish;

o‘z kasbiy rivojlanish rejasini tuzish;

kasbiy rivojlanish va ularning vakolatlari darajasini yaxshilashning rasmiy va norasmiy usullarini tanlash;

o‘z tajribasi va erishgan natijalarini tahlil qilish;

yangi sharoitlarga moslashish;

b) maktabgacha ta’lim tashkilotlariga:

kadrlar siyosatini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish;

pedagoglarni ishga qabul qilish, mehnat shartnomalarini tuzish;

lavozim yo‘riqnomalarini ishlab chiqish;

pedagoglar malakasini oshirishni tashkil etish;

pedagoglarni attestatsiyadan o‘tkazish va malaka toifalarini berish;

v) oliy va professional ta’lim muassasalari, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlariga:

malaka talablari va ta’lim dasturlarini ishlab chiqish;

o‘quvchilarning nazariy va amaliy tayyorgarligi sifatini baholash uchun foydalanish;

maktabgacha ta’lim sohasi uchun kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayonida namunaviy o‘quv reja va dasturlarni ishlab chiqish;

g) maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidagi boshqaruv organlariga: maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish;

maktabgacha ta’lim tizimida pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirish va monitoring qilish;

pedagoglar faoliyatining barcha yo‘nalishlarida kasbiy malakalar darajasini baholash vositalarini ishlab chiqish;

pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi darajasini tahlil qilib borish;

pedagogik kadrlar tayyorlashning maqbul darajasini ta’minlash uchun pedagogik amaliyotning jihatlarini baholash va aniqlash.

4-bob. Pedagog xodimlarning kasbiy qadriyatlari va ijtimoiy ko‘nikmasi

7. Kasbiy qadriyatlar va ijtimoiy ko‘nikmalar pedagog xodimlarning kasbiy madaniyatining asosini tashkil qilib, ularning kasbiy jihatdan yaroqliligi va ta’lim- tarbiya faoliyatini olib borishga tayyorligini belgilaydi.

8. Pedagoglik kasbining asosiy qadriyatlari quyidagilardan iborat:

bolaning shaxsiyatini hurmat qilish, uning huquq va erkinliklariga rioya qilish, uning barkamol rivojlanishi uchun mehr-muhabbat, ezgulik va mehr-shafqat, Vatanga sadoqat, o‘zaro tushunish va hurmat, mas’uliyat va o‘z qadr-qimmatini saqlash tuyg‘ularini, bolalarda uddaburonlik, mehnatga va bilim olishga muhabbat kabi fazilatlarni qaror toptirish;

mas’uliyat tuyg‘usi, o‘z harakatlariga sermulohaza yondashuvni, shuningdek, boshqalarning huquq va erkinliklariga putur yetkazishga yo‘naltirilmagan har qanday nuqtayi nazarlar, qarashlar, e’tiqod va fikrlar, shuningdek odamlarning turmush tarzi va odatlarini hurmat qilish;

milliy, etnik mansubligi, tili, yoshi, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, nogironligi yoki boshqa maqomidan qat’i nazar, barcha odamlarga teng va adolatli munosabatda bo‘lishni qo‘llab-quvvatlashni nazarda tutuvchi adolat va xolislikni qaror toptirish.

9. Pedagog quyidagi ijtimoiy ko‘nikmalar to‘plamiga ega bo‘lishi lozim:

o‘zi ta’lim olishi;

analitik va tanqidiy fikrlash;

tinglash va kuzatish qobiliyati;

chiqishimlilik, lingvistik qobiliyatlar va turli tillarda muloqot qilish ko‘nikmalari;

hamkorlik qilishga tayyorlik;

nizolar va ziddiyatlarni hal qilish qobiliyati.

10. O‘zi ta’lim olishi qobiliyati - o‘z ehtiyojlariga muvofiq mustaqil o‘qitish jarayonini tashkil etish va erishilgan natijalarni tashqi aralashuvlarsiz baholash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma hisoblanadi.

11. Analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyati olingan ma’lumotlar asosida tizimli va mantiqiy izchil tahlil qilish, baholash va turli vaziyatlar haqida o‘z fikrini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma.

12. Tinglash va kuzatish qobiliyati atrofdagi bolalarning og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlariga e’tibor qaratgan holda, nima deyilganini tushunish, nima va qanday aytilganini qayd etish uchun zarur bo‘lgan qobiliyat.

13. O‘zaro muloqotchanlik, lingvistik qobiliyatlar va turli tillarda muloqot qilish ko‘nikmalari bir yoki boshqa tillarda so‘zlashadigan odamlar bilan malakali va samarali muloqot qilishni talab etadi.

14. Hamkorlik qilishga tayyorlik qo‘shma tadbirlarda, tashabbuslarda va har xil faoliyat turlarida muvaffaqiyatli ishtirok etish, shuningdek, umumiy maqsadlarga erishish uchun boshqalarni hamkorlik qilishga undash uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar to‘plami.

15. Nizolar va ziddiyatlarni hal qilish qobiliyati nostandart vaziyatlarga javob berish, ularni boshqarish va ularni tinch yo‘l bilan hal qilish, tomonlarni nizoning barcha ishtirokchilari uchun maqbul bo‘lgan yechimlar topish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalardir.

6-bob. Muvaqqat kasbiy standart sohalari bo‘yicha ko‘rsatgichlari

16. Muvaqqat kasbiy standart oltita soha bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagogiga qo‘yilgan talablarni o‘z ichiga oladi:

rivojlantiruvchi ta’lim muhitini tashkil etish;

ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish;

bolalarni o‘qitish va tarbiyalash;

bolalarning rivojlanish jarayonini kuzatish;

oila bilan hamkorlik;

kasbiy rivojlanish.

Muvaqqat kasbiy standart sohalari bo‘yicha maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogi uchun talab qilinadigan bilim va ko‘nikmalar mazkur standartning ilovasi bilan belgilanadi.

17. Muvaqqat kasbiy standart sohalari pedagogning kasbiy faoliyati tuzilmasini aks ettiradi hamda bolalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning rivojlanishi, tarbiyasi va ta’limini yuqori sifatda ta’minlashda muhim hisoblanadi.

18. Har bir soha bo‘yicha pedagogning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarni aks ettiruvchi malakalar standartlari taqdim etiladi. Malakalar standartlarni bajarish bu sohadagi pedagogik xodimlar faoliyatining samarali ekanligini anglatadi.

19. Har bir malakalar standartining qarshisida pedagoglarning

har bir alohida standartga erishish uchun harakatlarini belgilaydigan samarali faoliyatning mehnat funksiyalari ko‘rsatkichlar belgilanadi.

Malakalar standarti sohalar bo‘yicha bajarish har bir sohada ko‘rsatilgan va pedagog xodimlarning kasbiy qadriyatlariga asoslangan bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash bilan bevosita bog‘liq.

20. Pedagoglarga kasbiy standart bo‘yicha ko‘rsatgichlarga qo‘yiladigan talablar quyidagi sohalar bo‘yicha belgilanadi:

a) rivojlantiruvchi ta’lim muhitini tashkil etish sohasida - ta’lim muhiti bolalarning kognitiv, ijtimoiy, hissiy va jismoniy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy va psixologik xavfsiz muhitni yaratish orqali pedagog xodimlar bolalarning ta’lim va tarbiyasini rag‘batlantiradi. Muayyan ehtiyojlarni inobatga olib, ta’lim muhitini moslashtirib, pedagog xodimlar bolalarni mustaqil va hamkorlikda ishlashga, ta’lim-tarbiya jarayonida ham, kundalik vaziyatlarda ham tavakkal qilishdan va murakkabroq vazifalarni o‘z zimmasiga olishdan qo‘rqmay, har xil turdagi bolalar faoliyatida va vazifalarda ishtirok etishga undaydi;

b) ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish sohasida - pedagog xodimlar davlat o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan yillik tematik reja asosida, ijodiy yondoshgan holda, bolalarning nima qilishni, bilishini va tushunishiga tayangan holda ishlaydi. Rejalashtirish jarayoni aniq maqsadga qaratilganligi va moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. Pedagoglar rejalashtirib ta’lim-tarbiya jarayoni qanday amalga oshirilayotganini, bolaning hayotida nimalar sodir bo‘layotganini va uning qanday rivojlanishini hisobga oladi, har bir bolaga yordam berish, shuningdek, uning salohiyatini ochib berish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni belgilaydi;

v) bolalarni o‘qitish va tarbiyalash sohasida - pedagoglar Davlat o‘quv dasturida belgilangan talablarni bajarishi va har bir bola rivojlanishning 5 ta asosiy yo‘nalishi bo‘yicha rivojlanishini optimal tarzda qo‘llab-quvvatlashi shuningdek, jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o‘qish va yozish ko‘nikmalari, bilish jarayonini rivojlantirish va ijodiy rivojlantirish, pedagog bolalarning yoshi va ehtiyojlariga mos keladigan faol o‘qitishning turli usullari va shakllaridan foydalangan holda dasturni moslashtiradi,

shuningdek, ta’lim va tarbiya xizmatlarini ko‘rsatadi;

g) bolalarning rivojlanish jarayonini kuzatish sohasida - bolalarning rivojlanishidagi yutuqlarni aniqlash hech qanday testlarsiz kuzatish orqali amalga oshiriladi. Bolalarni muntazam ravishda kuzatib borish va boshqa tegishli usullarni qo‘llash orqali pedagog natijalarni tahlil qiladi va tahlil natijalarining xulosalaridan foydalanib, keyingi ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtiradi. Pedagog ayrim bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olib, kelajakda muvaffaqiyatga erishish uchun ularni qo‘llab-quvvatlaydi;

d) oila bilan hamkorlik sohasida - uy va oila bolaning ta’lim va ijtimoiy rivojlanishi boshlanadigan muhitdir. Bolalarning ta’lim va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun bolalar oilalarining turli tarkibi, kelib chiqishi, turmush tarzi va xususiyatlarini hisobga olish kerak. Oilalar va maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasida doimiy ikki tomonlama aloqa va o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali pedagog bolalarning ta’lim-tarbiyasi va kelajagi uchun barcha tomonlarning manfaatlari va mas’uliyatini tan olishga yordam beradi.

e) kasbiy rivojlanish sohasida - o‘zining kasbiy va shaxsiy rivojlanishi bilan doimiy shug‘ullanadigan, amaliy ishlarini tahlil qiladigan, shuningdek, boshqa pedagoglar bilan hamkorlikda ishlaydigan pedagog yuqori sifatli pedagogik faoliyatni amalga oshiradi. Pedagog o‘zining kuchli va zaif tomonlarini, shuningdek, o‘z rivojlanishi nuqtayi nazaridan ehtiyojlarini bilishi va shu asosda o‘z malakasini oshirish rejasini tuzishi kerak.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

21. Ushbu Muvaqqat kasbiy standart talablari buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2025-yil 19-fevraldagi
60-son buyrug‘iga
2-ILOVA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARI UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANTIRISH (malaka oshirish) KURSINING

O‘QUV DASTURI
(oliy va I-toifali tarbiyachilar uchun)

Toshkent - 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining O‘QUV DASTURI

Tuzuvchilar:

F.R.Qodirova	MTTDMQTMOI “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi professori, p.f.d.
N.M.Uralova	MTTDMQTMOI “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi
M.M.Rizayeva, X.E.Mamatova, Sh.B. Kattaho‘jayeva Y.R. Jumayev	MTTDMQTMOI “Maktabgacha va musiqiy ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchilari MTTDMQTMOI “Maktabgacha ta’lim menejmenti” kafedrasi katta o‘qituvchisi
N.R.Navro‘zova	MTTDMQTMOI “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Maslahatchi:

Kristian Fabbi	“Redjio Emilio” tashkiloti rahbari, YUNESKO ning maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha xalqaro eksperti

Taqrizchilar:

N.N.Djamilova	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 'Maktabgacha ta’lim" fakulteti "Maktabgacha ta’lim metodikasi" kafedrasi prof. (DsC)
S.S.Raximova	MTTDMQTMOI “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedra mudiri p.f.f.d (PhD)

Mazkur o‘quv dasturi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Kengashining 2025-yil 30-yanvardagi 1-son yig‘ilish bayonnomasi bilan ma’qullangan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

Ushbu o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-152-son Farmoni va 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son qarori, O‘zbekiston Respublikasining “Ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari”, shuningdek, “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining muvaqqat kasbiy standarti”ga muvofiq maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish, maktabgacha ta’lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, zamonaviy talablar asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi. Dastur mazmuni O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari hamda maktabgacha ta’lim sifatini yaxshilashda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining pedagogik etika va muloqot madaniyati, maktabgacha ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy- huquqiy hujjatlar mazmuni, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy tarbiyani amalga oshirish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazish, inklyuziv ta’limni tashkil etish, tarbiyalanuvchilarning hayoti muhofazasi hamda ularni sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish bo‘yicha tegishli yangi bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish va umumiy kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishga yo‘naltirilgan.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish kursining o‘quv dasturi tarbiyachilar malakasini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, ular egallashi zarur bo‘lgan

umumiy kompetensiyalar bo‘yicha quyidagi blok va modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

I I. Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish

1.1. Maktabgacha ta’lim tizimiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar va maktabgacha ta’lim sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari

1.2. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish

1.3. Jamiyatda nogironligi bo‘lgan bolalar huquqini himoya qilish

1.4. Maktabgacha ta’lim tashkilotida hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlash

1.5. Sog‘lom ovqatlantirishga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar

II. Umum-kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish

II.1. Davlat ta’lim talablari va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish

II.2. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi

II.3. Tarbiyachining pedagogik faoliyatini rejalashtirish

II.4. Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o‘rgatish

III. Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga zamonaviy yondashuvlar

III.1. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish

III.2. 6-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash

III.3. Maktabgacha ta’limda modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish

III.4. “San’at”, “Qurish, konstruksiyalar va matematika” markazlarida ta’limiy faoliyatni tashkil etish

III.5. “Fan va tabiat”, “Til va nutq”, “Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish” markazlarida ta’limiy faoliyatni tashkil etish

III.6. Kasbiy faoliyatda raqamli texnologiyalardan foydalanish

III.7. Tanlov moduli

IV. Yakuniy attestatsiya

Kursning maqsadi va vazifalari

Kursining maqsadi - maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini yangilash va rivojlantirish orqali maktabgacha ta’lim jarayonining sifatini oshirish, bolalar uchun innovatsion, samarali va rivojlantiruvchi ta’lim-tarbiya muhitini yaratishga ko’maklashishdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarning faoliyati O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimiga qo‘yilgan davlat talablari va standartlariga muvofiqligini ta’minlashni hamda mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalarni asoslarini o‘rgatish;

- maktabgacha ta’lim sohasidagi yangi nazariy bilimlar va amaliy tajribalar bilan tanishtirish;

- kasbiy faoliyatda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarni rivojlantirish;

- bolalar qiziqishlari, ehtiyojlari va qobiliyatlarini aniqlashga va ularga mos ta’lim-tarbiya usullarini qo‘llashga o‘rgatish;

- tarbiyachilarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga yordam berish, ular faoliyatini yanada samarali tashkil etish;

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda yuqori sifat standartlariga erishish uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirish;

- o‘quv-tarbiyaviy jarayonni to‘g‘ri rejalashtirish va tashkil qilish bo‘yicha metodik ko‘rsatmalar bilan tanishtirish;

- tarbiyachilarning o‘z faoliyatini tahlil qilish va rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan o‘zini o‘zi baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Ushbu vazifalar maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy rivojlanishini uzluksiz ta’minlash va ular faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishga yordam beradi.

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar:

tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligi hamda kompetentligiga qo‘yiladigan malaka talablari

bilan belgilanadi.

Kurs hajmi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) o‘quv kursining hajmi **4 ta blok, 16 ta modul** va yakuniy sinovdan iborat bo‘lib, jami **100 soatni** tashkil etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (malaka oshirish) kursining o‘quv dasturi modullarining mazmuni

T/r	O‘quv fanlari, fan modullari va bloklarining nomlari	Umumiy o‘‘quv yuklama hajmi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)				Yakuniy attestatsiya
		Soat	**%**	Jami	Nazariy	Amaliy	Ko‘ chma	
1	2	3	4	5	6	7	8	9
I	Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish	**20**	**20,0**	**20**	**10**	**10**		
II	Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish	**26**	**26,0**	**26**	**10**	**10**	**6**	
III	Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga zamonaviy yondashuvlar	**48**	**48,0**	**48**	**18**	**30**		
IV	Yakuniy attestatsiya	**6**	**6,0**	**6**				**6**
	Jami	**100**	**100,0**	**100**	**38**	**50**	**6**	**6**

Izoh: “Ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish” *bloki tarkibiga kiruvchi o‘quv*

modullarining dasturi alohida invariant dastur sifatida tasdiqlangan.

II. UMUMKASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

1.1. “Davlat ta’lim talablari va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining mazmun va mohiyati	2	2	
2.	Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining mazmun va mohiyati	2		2
3.	Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarining integratsiyasi	2		2
	Jami:	**6**	**2**	**2**

2.1. “Davlat ta’lim talablari va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining mazmun va mohiyati

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarining maqsadi, vazifalari, tamoyillari. MTTda bolalar rivojlanishiga qaratilgan katta sohalar va ular qamrab olgan kichik sohalarga qo‘yiladigan talablar.

2-mavzu. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining mazmun va mohiyati

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining mazmuni va unga kiritilgan o‘zgartirishlar. “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

3-mavzu. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarining integrasiyasi

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Bolani rivojlanish markazlari: “Til va nutq” “Qurish-konstruk-

siyalash va matematika”, “Fan va tabiat”, “San’at”, “Syujetli rolli o‘yinlar va sahnalashtirish” rivojlanish markazlari integrasiyasini ta’minlash. Rivojlanish markazlarida ta’lim- tarbiya jarayonida o‘yinlardan foydalanish va tahlil qilish.

1.2. “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	MTTda bolalarning rivojlanish asoslari	2	2	
2.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin va o‘rganish	2		2
3.	Terapiyalar orqali bolalarni korreksiya qilish	2		2
	Jami:	**6**	**2**	**4**

2.2. “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. MTTda bolalarning rivojlanish asoslari

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

Bolalar rivojlanishining bosqichlari. Fiziologik va psixologik rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi.

2-mavzu. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin va o‘rganish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘yinning psixologik ahamiyati. Turli o‘yin turlari va ularning rivojlantiruvchi funksiyalari.

3-mavzu. Terapiyalar orqali bolalarni korreksiya qilish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Art-terapiya orqali bolalarni ruhiyatini o‘rganish. Ertak terapiya orqali bolalarni o‘rganish.

2.3. “Tarbiyachining pedagogik faoliyatini rejalashtirish” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)			
		Jami	Nazariy	Amaliy	Ko‘chma mashg‘ulot
1.	Tarbiyachisining ish hujjatlarini rasmiylashtirish	2	2		
2.	Bolalarning rivojlanish xaritasini yuritish :kuzatish va yakka ishlashni rejalashtirish	2	2		
3.	Tarbiyachining oylik ish rejasi (Ish jurnali) ni yuritish tartibi	2			2
4.	Bolalarning rivojlanish xaritasini yillik yakun hisobotini rasmiylashtirish	2			2
5.	Yozgi sog‘lomlashtirish mavsumida ta’limiy-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va chiniqtirish ishlarini tashkil etish	2			2
	Jami:	**10**	**4**		**6**

1.3. “Tarbiyachining pedagogik faoliyatini rejalashtirish” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Tarbiyachining ish hujjatlarini rasmiylashtirish

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

Tarbiyachisining ish hujjatlarining mazmuni. Tarbiyachining oylik ish rejasi asosida 05-ish hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi. Ta’limiy jarayonlarda dasturlar va ularning mazmunini bilan tanishtirish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish. Takomillashtirilgan “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida rivojlantiruvchi muhit mazmuniga qo‘yilgan talablar.

2-mavzu. Bolalarning rivojlanish xaritasini yuritish: kuzatish va yakka ishlashni rejalashtirish

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

Bolalarning rivojlanish xaritasini yuritish haqida tushuncha. Bolalarning rivojlanish xaritasini yuritish ishlashni rejalashtirish Maktabgacha yoshdagi bolalarni kuzatish va yakka ishlashni rejalashtirish takomillashtirilishi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida belgilangan rivojlanish sohalaridagi kutilayotgan natijalarni o‘rganish va berilgan mavzuga maqsadli yo‘naltirish.

3-mavzu. Tarbiyachining oylik ish rejasi (Ish jurnali)ni yuritish tartibi

(2 soat ko‘chma mashg‘ulot)

Tarbiyachining oylik ish rejasini Davlat talablaridagi kutilayotgan natijalarni tarbiyalanuvchilarda rivojlantirishda har bir yosh guruhida resurs ta’minotining muhimligi. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligining 2023-yil 28-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 99-sonli buyrug‘i asosida 05-MTT tarbiyachining ish hujjatlarini tartibli rasmiylashtirish.

4-mavzu. Bolalarning rivojlanish xaritasini yillik yakun hisobotini rasmiylashtirish

(2 soat ko‘chma mashg‘ulot)

“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturini amalga oshirish va har bir bolada tayanch kompetensiyalarni shakllantirishda rivojlanish xaritadagi indikator va davriylikka mos holda hujjatlashtirishga o‘rgatish.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning maktabga tayyorgarlik xaritasi rasmiylashtirish.

“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida ta’lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, uning tamoyillari, texnologiyalari asosida oraliq va yakuniy nazorat maqsadlarini belgilashga oid tushuncha berish.

5-mavzu. Yozgi sog‘lomlashtirish mavsumida ta’limiy-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va chiniqtirish ishlarini tashkil etish *(2 soat ko‘chma mashg‘ulot)*

Yozgi sog‘lomlashtirish mavsumida ta’limiy-tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va chiniqtirish ishlarini tashkil etish. Yozgi sog‘lomlashtirish mavsumida 05-02 oylik ish rejasini rasmiylashtirish malakasini shakllantirish. Yozgi sog‘lomlashtirish mavsumida ta’limiy-tarbiyaviy jarayon tadbirnomasini tuzish.Yozgi sog‘lomlashtirish davrida chiniqtirish tadbirlarini tartiblash.

2.4. “Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o‘rgatish” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Maktabgacha 5-6 yoshli bolalarni savodga o‘rgatishda tarbiyachining kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish	2	2	
2.	Tarbiyalanuvchilarda “4K” metodi orqali savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish	2		2
	Jami:	**4**	**2**	**2**

“Maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o‘rgatish” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Maktabgacha 5-6 yoshli bolalarni savodga o‘rgatishda tarbiyachining kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

Ilk-qadam davlat o‘quv dasturi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni savodga o‘rgatish. Savodga o‘rgatish faoliyatini rejalashtirish.

2-mavzu. Tarbiyalanuvchilarda “4K” metodi orqali savodxonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Maktabgacha 5-6 yoshli bolalarning so‘z haqidagi tasavvurlarini shakllantirish metodlari. 4“K” metodi. Maktabgacha 5-6 yoshli bolalarda fonemik eshitishni rivojlantirishda ta’limiy o‘yinlardan foydalanishni tashkil etish.

III. TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

3.1. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish" modulining o'quv-mavzu rejasi

T/r	O'quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg'ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish	2	2	
2.	Bolalarni jamoaga moslashtirish va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish yo'llari	2		2
3.	Guruh dinamikasi va pedagogik kuzatuvlar	2		2
	Jami:	**6**	**2**	**4**

1.1. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish" modulining o'quv dasturi

1-mavzu. Ta'lim va tarbiya jarayonini tashkil etish

(2 soat nazariy mashg'ulot)

Asosiy tushunchalar: bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiyalar. Ta'lim tashkilotlarida pedagogik mahorat va kasbiy kompetentlikni oshirish; Pedagogik mahorat, ta'lim metodlari, metodikalar va pedagogik texnologiyalar; Maktabgacha ta'limning asosiy tamoyillari. Ta'lim-tarbiya jarayonining tashkiliy jihatlari; Maktabgacha ta'limda pedagogik jarayon samaradorligini oshirish yo'llari; Innovatsion pedagogik faoliyat: maqsad, vazifa va natijalar. Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llashda xorij tajribasi.

2-mavzu. Bolalarni jamoaga moslashtirish va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish yo'llari

(2 soat amaliy mashg'ulot)

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ijtimoiy pedagogika tamoyillari. Bolalarni jamoaga moslashtirish jarayonini boshqarish bosqichlari va uning tarbiyachilar faoliyatidagi ahamiyati. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuv-

lar. Bolalarning ijtimoiy moslashuvini kuzatish va baholash usullari: metodik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar.

Qo‘llaniladigan ta’lim texnologiyalari: Mini nazariy, “Venn Diagrammasi” metodi, “Clustering” metodi, rolli o‘yinlar, guruhiy tahlil va muhokama, “Fishbone Diagram” metodi.

3-mavzu. Guruh dinamikasi va pedagogik kuzatuvlar

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Pedagogik kuzatuvilar: uslublar va strategiyalar. Guruh dinamikasini tushunish va boshqarish. Bolaning rivojlanish xaritasi.

3.2. “6-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash guruhlarida bolaning rivojlantiruvchi o‘qitish muhitini tashkil etish	2	2	
2.	Bolalarning rivojlanish xaritasini yuritish: kuzatish va yakka ishlashni rejalashtirish	2		2
3.	“Ilm yo‘li” variativ dasturi asosida o‘qitishga yondashuvlar: bolaga yo‘naltirilgan yondashuv va individuallashuv metodlari	2		2
	Jami:	**6**	**2**	**4**

1.2. “6-7 yoshli bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bir yillik tayyorlash guruhlarida bolaning rivojlantiruvchi o‘qitish muhitini tashkil etish

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

Bolalarga ta’lim berishdagi kompetensiyaviy yondashuvda “Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi. “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish”, “Nutq, muloqot, o‘qish va yozish ma-

lakalari”,“Bilish jarayonining rivojlanishi”, “Ijodiy rivojlanish” sohalari va ularning kichik sohalari. “Men” obrazini anglash, 6-7 yoshli bolaning psixik va shaxsiy sohalarida rivojlanishi.

2-mavzu. Bolalarning rivojlanish xaritasini yuritish: kuzatish va yakka ishlashni rejalashtirish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Bola rivojida kutilayotgan yangi natijalarni hisobga olish. Bola bilan yakka ishlashni rejalashtirish.

3-mavzu. “Ilm yo‘li” variativ dasturi asosida o‘qitishga yondashuvlar: bolaga yo‘naltirilgan yondashuv va individuallashuv metodlari

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Maktabgacha ta’lim jarayonidagi 6-7 yoshli bolalarning shaxsiy yo‘naltirilgan o‘qitilishi va tarbiyalanishi. Bolaga yo‘naltirilgan yondashuv. Rivojlantiruvchi yondashuv.

Ta’lim jarayonini bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyati va talab-ehtiyojlari bilan moslashtirish.

3.3. “Maktabgacha ta’limda modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ta’lim jarayonida modellashtirish texnologiyasi	2	2	
2.	Turli faoliyatlarda modellashtirish texnologiyasini qo’llash	2		2
	Jami:	**4**	**2**	**2**

1.3. “Maktabgacha ta’limda modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ta’lim jarayonida modellashtirish texnologiyasi

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

Ta’lim jarayonida modellashtirishning mazmuni va ahamiyati. Ta’lim jarayonida modellashtirish texnologiyasidan foydalanishga qo‘yiladigan talablar. Modellar turlari. Bolalarning modellarni o‘zlashtirish bosqichlari.

2-mavzu. Maktabgacha ta’limda modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Atrofdagi dunyoni bilishda modellardan foydalanish. Modellashtirish – maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish vositasi sifatida.

3.4. “San’at”, “Qurish, konstruksiyalash va matematika” markazlarida ta’limiy faoliyatni tashkil etish” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	“San’at” rivojlanish markaziga innovatsion yodashuv	2	2	
2.	Bolalarga turli xil usulda rasm chizishni o’rgatish	2		2
3.	Bolalarga applikatsiyada qirqish usullari va tasvir hosil qilishni o‘rgatish	2		2
4.	Bolalarni plastilin va loy ishiga o‘rgatish orqali ijodkorligni rivojlantirish	2		2
5.	Bolalarni bilish jarayonini rivojlanishida Qurish, konstruksiyalash va matematika markazining o‘rni	2	2	
6.	Bolalarda origami, tangramm, lego, sanoq cho‘p, pazl va boshqa vositalar orqali ijodkorlikni rivojlantirish	2		2
	Jami:	**12**	**4**	**8**

“San’at”, “Qurish, konstruksiyalash va matematika” markazlarida ta’limiy faoliyatni tashkil etish” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. “San’at” rivojlanish markaziga innovatsion yodashuv

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

“San’at” rivojlanish markazini tashkil etishda xorijiy tajribalardan foydalanish. Tasviriy faoliyat jarayonida innavatsion metod-

larni qo‘llash.

2-mavzu. Bolalarga turli xil usulda rasm chizishni o‘rgatish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Bolalarga an’anaviy usulda rasm chizishni o‘rgatishni takomillashtirish. Noan’anaviy usulda rasm chizishga o‘rgatish.

3-mavzu. Bolalarga applikatsiyada qirqish usullari va tasvir hosil qilishni o‘rgatish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Applikatsiya turlari va qirqish usullari. Maktabgacha yoshdagi bolalarni yassi va hajmli applikatsiya ishiga o‘rgatish.

4-mavzu. Bolalarni plastilin va loy ishiga o‘rgatish orqali ijorkorligni rivojlantirish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Bolalarni plastilin va loy ishiga o‘rgatishni o’ziga xos tomonlari. Chinni hamr tayyorlash texnikasi. Turli tasvirlar yasash orqali ijodkorlikni rivojlantirish.

5-mavzu. Bolalarni bilish jarayonini rivojlanishida Qurish, konstruksiyalash va matematika markazining o‘rni

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

Bilish jarayonini rivojlanishi soxasini mazmun mohiyati. “Qurish, konstruksiyalash va matematika” rivojlanish markazini metodik ta’minlash.

6-mavzu. Bolalarda origami, tangramm, lego, sanoq cho‘p, pazl va boshqa vositalar orqali ijodkorlikni rivojlantirish

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Origami, tangram va lego vositasida bolalar ijodini rivojlantirish. Sanoq cho‘p, pazl va boshqa vositalar orqali bolalarni matematik tasvvurlarini shakllantirish.

3.5. “Fan va tabiat”, “Til va nutq”, “Syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish” markazlarida ta’limiy faoliyatni tashkil etish” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
